



# E'TIBOR VA G'AMXO'RLIK OG'USHIDA

**1** Sohada olib borilgan islohotlar natijasida 23 ta mehribonlik muassasi va bolalar uyi faoliyati tugatildi. Mazkur yo'nalishda bolaning oila muhitida tarbiyalanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy himoya tizimi yo'lga qo'yildi.

Tadbirida Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining o'z xizmat burchini ado etish chog'ida halok bo'lgan harbiylarning farzandlari bilan samimiy muloqot bo'lib o'tdi. Har bir bola davlat himoyasida, uning ta'lim olishi, sog'lig'i, hayoti sifati hamisha e'tiborda ekanini ta'kidlandi.

Mamlakatimizda xizmat vazifasini ado etish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarining oilalarini qo'llab-quvvatlash va ularni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Mudofaa vazirligi tomonidan 2024-yilda 64 nafar, 2025-yilda esa 47 nafar harbiy xizmatchining farzandlariga oliy ta'lim muassasalariga kirish

uchun tavsiyanomalar berilgan.

Shuningdek, halok bo'lgan harbiylarning oila a'zolari va farzandlari harbiy shifoxonalarda muntazam tibbiy ko'riklardan o'tkazilmoqda, zarur hollarda davolanishi ta'minlanmoqda. Davlat bayramlari arafasida esa ularga sovg'alar topshirilib, madaniy-ma'rifiy tadbirlar va konsert dasturlarida ishtirok etishi uchun sharoit yaratilmoqda. Bundan tashqari, halok bo'lgan harbiylarning 15 nafar oila a'zosi uchun sanatoriylarda bepul dam olish tashkil qilingan. Yozgi davra esa ularning 37 nafar farzandi sog'lomlashtirish oromgohlarida bepul hordiq chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchrashuvda Senat Raisi bolalarga murojaat qilib "Sizlar – yurtimizning ertangi kuni, kelajagimiz egalarisiz. Bilim olishdan to'xtamang, yangiliklarni o'rganing, o'z ustingizda ishlang. Orzu qilishdan qo'rqmang va unga erishish yo'lida olg'a intiling, shunda albatta maqsadingizga yetasiz", deya

ta'kidlab bolalarni ruhlantirdi.

Ushbu ochiq muloqot yana bir bor davlat rahbari tomonidan bolalarga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikning, ayniqsa, ijtimoiy himoya tizimida yaratilayotgan imkoniyatlar, keng ko'lami loyihalar hamda tizimli dasturlar joriy etilayotganining yorqin namunasi bo'ldi. Bu esa yurtimizda vatanparvarlik, fidoyilik va sadoqat kabi muqaddas qadriyatlar avlodlarning avlodga o'tishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday tadbirlar orqali davlatimizning eng muqaddas qadriyatlaridan biri – Vatanga sadoqat yo'lida jonini fido qilganlarning xotirasini e'zozlash va ularning avlodlariga mehr ko'rsatish an'anasini yana bir bor o'z isbotini topmoqda.

Oliy Majlis Senati Raisi bolalar bilan samimiy suhbatlashib, ularning fikrlari va orzu-istaklarini tingladi, kelgusi rejalari bilan tanishdi.

Tadbir yakunida bolajonlar bayram dasturxoniga taklif etildi hamda ularga esdalik sovg'alar topshirildi.

"Xalq so'zi".

# O'zbekiston – Qozog'iston: MUSTAHKAMLANAYOTGAN ALOQALAR VA MUSHTARAK MAQSADLAR

**1** Shuningdek, u assambleya doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyevning ma'rufasi va unda ilgari surilgan tashabbuslar parlamentarizm rivojida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlandi.

Tomonlar ikki davlat rahbarlari o'rtasida erishilgan oliy darajadagi kelishuvlarning ijrosi ustidan tizimli parlament nazoratini o'rnatishga kelishib oldi.

**Oliy darajadagi kelishuvlarning ijrosi bo'yicha parlamentariylar fikr almashdi**

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov boshchiligidagi parlament delegatsiyasining Qozog'istonga tashrifi doirasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi bilan Qozog'iston Respublikasi Parlamenti Majlisi o'rtasidagi Parlamentlararo hamkorlik kengashining navbatdagi majlisi o'tkazildi.

Unda ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik holati va istiqbollari, axborot texnologiyalari, shu jumladan, sun'iy intellekt sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Shuningdek, madaniy-gumanitar va turizm aloqalarini mustahkamlash sohasidagi parlamentlararo hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari ko'rib chiqildi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro savdo aylanmasining hajmi ortgani va 2024-yilda bu ko'rsatkich 4,3 mlrd. dollarga yetganligi ijobiy baholandi. Kengash yig'ilishida 2030-yilgacha Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi tovar ayiriboshlash hajmini 10 mlrd. dollarga yetkazish bo'yicha shartnomalarni muntazam ravishda auditdan o'tkazish hamda yangi iqtisodiy voqe'liklar asosida ularga zudlik bilan tegishli o'zgartirishlar

kiritishga imkon beradigan mexanizmlarni joriy etishning qonunchilik bazasini mustahkamlash muhimligini ta'kidlandi.

Kengash yig'ilishida Markaziy Osiyo mintaqasida raqamlashtirish, sun'iy intellektni joriy etish, yirik ma'lumotlar bazasini shakllantirishning umumiy, uyg'unlashtirilgan huquqiy asoslarini yaratish masalalari ham muhokama qilindi.

Tomonlar axborot texnologiyalari va raqamli texnologiyalar sohasida o'zaro tajriba almashishga, jumladan, qonun ijodkorligi sohasida hamkorlik qilishga kelishib oldi.

**Mustahkam ishonch va do'stlikka asoslangan hamkorlik**

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov boshchiligidagi parlament delegatsiyasi Olmoata shahriga tashrifi doirasida "Farabi Hub" innovatsion markazida ham bo'ldi.

Delegatsiya a'zolari ushbu

markazda yoshlar tadbirkorligi, startaplar, axborot texnologiyalari va raqamli transformatsiya sohasidagi tashabbuslar bilan tanishdi.

Shuningdek, Qozog'iston Milliy san'at muzeyida bo'lib o'tayotgan "O'rol Tansiqboyev: ijodiy retrospektiva" ko'rgazmasi bilan tanishildi.

Qozog'iston tomoni mazkur ko'rgazmani keng ko'lamda va yuqori saviyada tashkil etishdagi tashabbus va faol ishtiroki uchun O'zbekiston Madaniyat va san'atni rivojlantirish jam'armasiga minnatdorlik bildirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Abilxan Kasteev nomidagi Milliy san'at muzeyiga tashrifi Qozog'iston jamoatchiligi tomonidan juda yuqori baholangan, ko'rgazma esa ikki mamlakatning boy madaniy merosining yorqin ifodasi, xalqlarimiz o'rtasidagi madaniy aloqalarini ramzlaridan biri bo'lganligi alohida e'tirof etildi.

Tashrif doirasida O'zbekiston Parlamenti delegatsiyasining Olmoata shahri hokimi D. Satibaldi bilan ham uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda hududlararo hamkorlikni mustahkamlash va kengaytirish masalalari muhokama etildi.

Tomonlar o'zlarini qiziqtirgan boshqa masalalarni ham ko'rib chiqdi.

## So'z – deputatlarga

**Anvarxon NURMATOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:**

– Qardosh o'zbek va qozoq xalqlarini ko'p asrlik do'stlik hamda birodarlik munosabatlari bog'lab turadi. So'nggi yillarda har ikki davlat ham mintaqaviy sheriklik kun tartibini izchil rivojlantirmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Qosim-Jomart Toqayevning qat'iy siyosiy irodasi tufayli O'zbekiston hamda Qozog'iston o'rtasida ikki tomonlama aloqalarning barcha yo'nalishida o'zaro munosabatlar faollashib, ko'p tomonlama muloqotlar mustahkamlanib bormoqda. Bu, ayniqsa, ikki davlat yetakchilarining o'zaro tashriflarida tasdiqlanayotgan loyihalar, imzolananayotgan hujjatlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbarining 2021-yil dekabr oyida Ostona shahriga tashrifi chog'ida Qozog'iston Respublikasi Prezidenti bilan o'zaro kelishuvlari tufayli ikki mamlakat hamkorligi, ittifoqchilikni yangi bosqichga ko'tarish, kelishuvlarning yuqori darajada o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishi ustidan parlament nazoratini olib borish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi bilan Qozog'iston Respublikasi Parlamenti Majlisi o'rtasidagi Parlamentlararo hamkorlik kengashini tuzish tashabbusi ma'qullanib, bu to'g'risida nizom imzolangan edi.

Mazkur kengash oldiga esa muntazam ravishda yiliga kamida bir marotaba yig'ilish o'tkazish belgilangan. Uning birinchi yig'ilishi 2023-yilda Toshkent shahrida bo'lib o'tgandi.

Parlamentlararo hamkorlik kengashining navbatdagi majlisida bir qator dolzarb masalalar ko'rib chiqildi.

Sir emaski, ikki qo'shni davlatning qadriyatlari o'xshash, maqsadlari mushtarak. Chunki umumiy merosimiz – qadimiy Buyuk Ipak yo'li sivilizatsiyasi dardonalari bo'lgan Samarqand va Turkiston, Buxoro va Chimkent, Toshkent va Olmoata – nafaqat tarixiy mehmondo'st shaharlar, balki ma'naviy ramzlarimiz hamdir.

Munosabalarimiz so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarilib, hamkorlikning barcha yo'nalishida sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Parlamentlararo hamkorlik kengashining navbatdagi yig'ilishi, shubhasiz, davlatlarimiz o'rtasidagi parlamentlararo aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishga turtki beradi.

**Atham NAZIRQULOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:**

– So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi parlamentlararo muloqot ancha faollashdi. Tomonlar qonun ijodkorligi, jumladan, xalqaro parlament tuzilmalari doirasida o'zaro tajriba almashish maqsadida delegatsiyalar tashriflarini muntazam ravishda amalga oshirmoqda.

Davlatlarimiz o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomaning imzolanganini munosabatlarimizni har tomonlama yuqori darajaga olib chiqdi.

Mamlakatimizda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlariga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun zarur shart-sharoitlar, undan foydalanish bilan bog'liq huquqiy, texnologik va iqtisodiy asoslarni yaratish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda Qozog'iston Respublikasida axborot texnologiyalari masalasi yuzasidan tasdiqlangan va amalga oshirilayotgan 2024 – 2029-yillarga mo'ljallangan sun'iy intellektni rivojlantirish konsepsiyasi bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida Prezidentimiz qarori bilan qabul qilingan Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi mavjud.

Ushbu strategiyada sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish bo'yicha erishish lozim bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlar, shu jumladan, sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 mlrd. AQSH dollariga, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun'iy intellekt asosida ko'rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish belgilab qo'yilgan.

Aytish joizki, sun'iy intellekt sohasida malakali kadrlarga ehtiyoj yuqori. Ayni paytda O'zbekistonda "Sun'iy intellekt" mutaxassisligi bo'yicha 2 ming nafarga yaqin talabalar tahsil olmoqda.

Parlamentlararo hamkorlik kengashining navbatdagi majlisida barcha sohalar qatori ushbu yo'nalishdagi aloqalarni yanada kuchaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgani ayni muddao bo'ldi. Xususan, raqamlashtirish, sun'iy intellektni joriy etish, katta ma'lumotlar bazasini yaratishning umumiy, uyg'unlashtirilgan huquqiy asoslarini yaratish masalalarini muhokama qilib oldik.

**Galiya RAYHONOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:**

– Parlamentlararo hamkorlik kengashining ikkinchi sessiyasida muhokama qilingan istiqbolli yo'nalishlar – iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, shuningdek, madaniy-gumanitar aloqalar va turizm Markaziy Osiyo davlatlarining barqaror va o'zaro manfaatli rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga to'liq mos keladi.

Shu o'rinda uchrashuvning yuqori darajada tashkil qilingani va muloqotning amaliy ahamiyatini qayd etish joiz. Chunki uchrashuv davomida amaldagi loyihalarga konstruktiv baho berildi va hamkorlikning yangi formatlari taklif etildi.

Ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi kelishuvlarni amalga oshirish, xususan, savdo, qishloq xo'jaligi, fan va ta'lim sohaslarida, shuningdek, ekologiya va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalarini hal etishda erishilgan yutuqlar tasdiq'li mamnuniyat bilan qabul qilindi.

Al-Forobiy nomidagi Qozoq Milliy universiteti qoshidagi innovatsion klaster faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoniyati yaratilgani uchun alohida minnatdorlik bildiramiz. Ushbu platforma startaplarni qo'llab-quvvatlash, yoshlar tashabbuslarini ilgari surish va yuqori texnologiyali yechimlarni tatbiq etish imkoniyatlarini bilan hayratda qoldirdi. Yoshlar o'rtasida innovatsiyalar va tadbirkorlik ekotizimlari ham faol rivojlanayotgan O'zbekiston uchun nihoyatda muhim.

Kengashning birinchi yig'ilishi yakunlari bo'yicha kelishilgan "Yo'l xaritasi"ning muvaffaqiyatli amalga oshirilgani mamlakatlarimiz universitetlari o'rtasidagi aloqalarni faollashtirish imkonini berdi.

Bugungi kunda O'zbekiston va Qozog'iston oliy o'quv yurtlari o'rtasida 280 dan ortiq hamkorlik shartnomalari amal qilmoqda. Turizm sohasida ham ko'plab ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Qo'shma yo'nalishlarni ishlab chiqish, umumiy madaniy merosni targ'ib qilish va turizm sanoatini raqamlashtirish Markaziy Osiyoni ichki va tashqi turizm uchun yanada ochiq qiladi.

Ishonchimiz komilki, bu yo'nalishdagi muvofiqlashtirilgan yondashuv nafaqat mintaqaning jozibadorligini oshirish, balki madaniyatlararo o'zaro tushunishni ham mustahkamlash imkonini beradi. Kengashning ikkinchi yig'ilishi yakunlari yuqori darajadagi ishonch va aloqalarni yanada chuqurlashtirishdan o'zaro manfaatdor ekanini ko'rsatdi.

"Xalq so'zi".

## FARZAND – NOZIK NIHOL

*Bolalar – bizning kelajagimiz, boshlagan ezgu ishlarimizning davomchilari, ko'zimizning nuri, qalbimiz sururi. Ular bilan hayotimiz obod, ko'nglimiz charog'on. Shu sababli ham yurtimizda navqiron avlod baxti uchun hamma narsa muhayyo qilingan.*

### Fikr

Xalqimiz azaldan o'zining bolajonligi, bolaparvarligi bilan dovruq taratgan. Ana shu tarixiy an'anadan kelib chiqib mamlakatimizda ham bola huquqlari kafolatlarini ta'minlash, ularni himoya qilish uchun zarur sharoitlar yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bugungi kunda milliy qonunchiligimizda bola huquqlari bilan bog'liq qonun hujjatlari soni 40 tadan, qonunosti hujjatlari soni 500 dan ortiq. Qolaversa, mamlakat aholisining 35 foizini (13 millionga yaqin) bolalar tashkil etishini, ya'ni O'zbekistonning har uchinchi fuqarosi – bola ekanini inobatga olib Konstitutsiyamizda ham bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish kafolatlari kuchaytirildi.

Bola huquqlari va erkinliklarini himoya qilish yo'lida qonunchilikni tubdan takomillashtirish jarayoni izchil davom ettirilmoqda. Birgina 2024-yilda bola manfaatlarini ta'minlashga oid 3 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 ta Farmoni va 8 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 10 ta qarori qabul qilindi.

O'z navbatida, mazkur qonunchilik hujjatlari asosida bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllidan himoyalashning yagona mexanizmi joriy etildi, bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimi tubdan isloh qilindi. Farzandni bejiz niholga qiyoslashmaydi. Chunki birgina kichik nihol o'sib-unishi uchun qanchalik parvarish zarur bo'lsa, bolalarimizning kamoloti uchun ham biz ota-onalaru jamiyatdan cheksiz g'amxo'rlik, mehr-muruvvat lozim bo'ladi. Zero, to'g'ri parvarishlangan niholigina kelajakda baquvvat, sog'lom, azim chingora aylanadi.

Shu nuqtaiy nazardan, mamlakatimizda bolalarni ijtimoiy himoya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, bolaning oila muhitida tarbiya topishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy himoya tizimi yo'lga qo'yildi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi, tuman darajasida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va har bir mahallada ijtimoiy xodim faoliyati yo'lga qo'yildi.

Yurtimizda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning jamiyatga moslashuvini ta'minlash bo'yicha keng ko'lami ishlar olib borilmoqda, bu toifadagi bolalarni ularning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqib muqobil shaklda yashash

manziliga joylashtirish masalasiga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Yurtimizda 2021-yilga qadar davlat muassasasi shaklidagi 16 ta mehribonlik uyi, 13 ta go'daklar uyi, 4 ta bolalar shaharchasi, 5 ta oilaviy bolalar uyi, 3 ta "SOS – O'zbekiston bolalar mahallalari" faoliyat yuritib, ularda 2 568 nafar bola tarbiyalangan.

Olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida 23 ta mehribonlik muassasasi va bolalar uyining faoliyati tugatildi. Prezidentimizning yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda mehribonlik muassasalarini isloh qilishga qaratilgan Farmon va qarorlari asosida yangi noinstitutsional tuzilma – oilaviy bolalar uylari tashkil qilinishining huquqiy asoslari yaratildi.

Ana shu asosga ko'ra o'g'il-qizlarimizning chinakam baxtli o'ladida tarbiya topishi, ota-ona mehriini his qilishi, o'z uyida aka-uka va opa-singillari bilan yashashi uchun sharoit yaratish maqsadida oilaviy bolalar uylari tashkil etildi. Bugungi kunda 140 ga yaqin bu kabi tuzilmalar faoliyat olib bormoqda.

Hozirgi vaqtda kelajagimiz bo'lgan yoshlarni buyuk ajdodlarimiz kabi go'zal xulq va odobli, bilimli, dunyo tamadduni rivojiga munosib hissa qo'sha oladigan darajada kamolotga erishishi, yuksak ma'naviy mezonlar bilan uyg'unlashgan umuminsoniy qadriyatlar ruhida ulg'ayishini ta'minlash borasida barcha bir tan, bir jon bo'lib harakat qilishi eng muhim vazifalarimizdandir. Shu ma'noda, bolalar masalasi Oliy Majlis Senati faoliyatining ham ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanini ta'kidlash lozim.

Senat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning oilaviy muhit va jamiyatga moslashuvi, uy-joy bilan ta'minlanishi, ijtimoiy himoyasi, sog'lig'i hamda ta'lim olishi bilan bog'liq huquqlarining ta'minlanishi ustidan ta'sirchan parlament nazoratini olib bormoqda.

Mamlakatimizda hech bir bola e'tibordan chetda qolmaydi va o'z holiga tashlab qo'yilmaydi. Biz uchun jamiyatda begona bolaning o'zi yo'q. Har bir bolaga o'z vaqtida yetarlicha mehr ko'rsatib, ularni ilimga, kasb-hunarga o'rgatsak va yaxshi tarbiya qilsak, o'z samarasini beradi, albatta.

**Orzugi QOZIXONOVA, Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi.**

## BUYUK SHOIRNING BEBAHO MEROSI BOLAJONLAR NIGOHIDA

*O'zbekiston Respublikasi kasaba uyushmalari Federatsiyasi saroyida 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan bayram tadbiri o'tkazildi. Unda yurtimizdagi oilaviy bolalar uylari va Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari qatnashdi. Federatsiya qoshida tashkil etilgan "Qaldirg'och" bolalar teatri tomonidan Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni motivlari asosida namoyish etilgan musiqali spektakl tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.*

### Taassurot

Jonajon Vatanimiz "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning butunlay yangi bosqichiga qadam qo'yib, yangi Uyg'unish davri – uchinchi Renessans paydoverini yaratayotgan bugungi davrda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida yosh avlodga yuksak insoniy fazilatlarini bolalardan singdirish, ularda milliy qadriyatlarimizga ehtirom, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zotan, millatimiz faxr-iifxori bo'lgan ulug' bobokolonimizning ijodi insonni to'la-to'kis poklanish yo'lida olib chiqishga qaratilgan. Uning har bir



asarida kamtarlik, bag'rikenglik, ahillik, sabr-qanoat, ezigulik, do'stlik ulug'lanib, kibrilanish, mag'rurlanishu manmanlik qattiq qoralanadi.

Davlatimiz rahbarining "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezigulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi", degan da'vati tom ma'noda ulug' bobomiz asarlarini

yoshlar orasida keng targ'ib etish vazifasini kun tartibiga qo'ydi. Alisher Navoiy g'oyalari yoshlarimizda milliy ruhning yuksalishiga xizmat qiladi, ularning o'zlikni anglashiga, yuksak xulq-atvorga ega bo'lishiga, inson kamoloti borasidagi o'g'itlaridan o'ziga kerakli xulosalar chiqarib olishiga turtki beradi.

Shu ma'noda, ulug' bobokolonimiz asarlarida ko'tarilgan g'oyalarni bolalarbop qilib tushuntirish dolzarb vazifalardan biri. Bu yo'ldagi amaliy harakatlarda davlatimiz rahbari tomonidan Alisher Navoiy ijodini targ'ib etish bo'yicha muntazam berib borilayotgan topshiriqlar va tashabbuslarga hamohang ruhda davom ettirilmoqda.

Sahnalashtirilgan spektaklda Alisher Navoiyning gumanistik g'oyalari ifodalagan ko'plab hikmatli so'zlari, o'git va nasihatlari go'zal kuy-qo'shiqlar vositasida taqdim etildi. "Lison ut-tayr" ("Qush tili") dostonida bosh qolqilovchi hikoya asar suyujetini tashkil etadi.

Unga ko'ra, jahon qushlari yig'ilishib, o'z martabalarini yuzasidan bahslashadi. So'ng bu bahslarga yechim faqat Semurg' qo'lidan kelishiga ishonib, uni izlab yo'lga tushadi. Yo'l juda uzoq, yetti tahlikali vodiyaning o'tish orqali manzilga yetib boradi. Yo'lida duch kelgan va ko'rgan voqealar ularning kamolotiga sabab bo'ladi. Manzilga yetgach ular Semurg' aslida o'zlari ekanini, ya'ni yo'lga chiqqan o'ttiz qush (simurg' – forscha o'ttiz qush degani) inson bosib o'tishi lozim bo'lgan kamolot yo'li ekanini anglaydi. Buyuk shoir bu dostoni orqali inson butun umri davomida kamolilik sari intilishi lozimligini, hayotiy tajriba ularni yetuklikka olib borishini ta'kidlaydi.

Bunday sahna asarlari millatimizning ulug' murabbiyi – hazrat Alisher Navoiyni bolajonlarga yaqindan tanishtiribgina qolmay ularni yaxshilik, ahillik, saxiylik, do'stlik, halollik va birdamlik kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan oshno qilishi, yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga katta hissa qo'shishi, shubhasiz.

**Shuhrat SIROJIDDINOV, akademik.**

## KAFTIMIZDAGI BUYUK IPAK YO'LI – FAROVONLIKKA QADAM

*Samarqand shahridagi "Silk Road Samarkand" xalqaro turizm markazida o'zaro strategik sheriklikni mustahkamlash, hududlararo hamkorlikni rivojlantirish hamda sarmoya va ishlabrmonlik aloqalarini kengaytirishga qaratilgan O'zbekiston – Xitoy hududlararo ikkinchi forumi bo'lib o'tdi. Unda ikki mamlakat ishlabrmon doiralari, hukumatlar, viloyatlar hokimliklari, shuningdek, fan va ta'lim muassasalari vakillari ishtirok etdi.*

Anjuman doirasida "Kaftimizdagi Buyuk Ipak yo'li – O'zbekiston va Xitoy innovatsiya hamda tadbirkorlik bo'yicha hamkorlik" xalqaro ayollar forumi ham o'tkazildi. Tadbirida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari – Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Zulayho Mahkamova, Xitoy Xalq Siyosiy maslahat Kengashi 14-chaqiriq yig'ilishi raisining o'rinbosari, SHHTning qo'shnichilik, do'stlik va hamkorlik bo'yicha Xitoy qo'mitasi raisi Shen Yuyue, Tadbirkor ayollar assotsiatsiyasi vitse-prezidenti, Shensi muzofoti ayollar federatsiyalari mas'ul rahbarlari, 40 ga yaqin tadbirkor ayollar, O'zbekiston tomonidan vazir o'rinbosarlari, Samarqand viloyati mahalliy davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari ayollarning innovatsion tashabbuslari va tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish masalalarini keng muhokama qildi.

Tadbirida qayd etilganidek, o'tgan yilda O'zbekiston uchun ustuvor hisoblangan 20 ta xalqaro reyting va indeksning 10 tasida mamlakatimiz ko'rsatkichlari yaxshilandi. "Ayollar, biznes va qonun" indeksida mamlakatimiz 48 qo'nonaga yuksalib, 190 davlat ichida 91-o'rinini egalladi. 82,5 ball ko'rsatkichni qayd etdi. Bu gender tenglik, ayollar huquqlari va imkoniyatlarini ta'minlash sohasidagi keng qamrovli islohotlar samarasining yorqin ifodasidir.

Forumda o'zbek va xitoy tadbirkor ayollari o'zaro tajriba almashdi, bir-birlarining faoliyatini to'g'risida ma'lumotga ega bo'ldi. Hamkorlik bo'yicha o'ndan ortiq kelishuvlarga erishildi. Forum yakunida olib borilgan muzokara va muhokamalar natijasi sifatida deklaratsiya qabul qilindi.

**Abdulaziz YO'LDOŠEV ("Xalq so'zi").**

# DUNYO BILAN HAMJIHATLIK – BARQAROR RIVOJLANISH ASOSI

Jiddiy geosiyosiy notinchliklar, Yaqin Sharq va Sharqiy Yevropadagi mojarolar, sanksiyalar urushi, hatto yadroviy tahdidlar o'ldirish "sovuq urush" uslubidagi ritorikaning qayta tiklanishi Markaziy Osiyoda jiddiy tashvish uyg'otmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilari global va mintaqaviy mojarolarga aralashmaslik, betaraflikni saqlash niyatlarini qayta-qayta ta'kidlaydi. Bu strategiya tufayli mintaqamiz davlatlari ham Sharq va G'arb, ham Janub va Shimol davlatlari bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni davom ettirmoqda. Asosiy maqsad – keskinlashuvlarning oldini olish, barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shish va do'stona munosabatlar formatini saqlab qolishdir. Shubhasiz, bu masalalar O'zbekiston tashqi diplomatiyasi kun tartibida doimo dolzarb.

Albatta, dunyodagi jarayonlar mamlakatimiz rahbariyati tomonidan tashqi siyosiy kursni belgilash va amalga oshirishda inobatga olinadi va chuqur tahlil qilinadi.

Bu haqda so'z ketganda, 2016-yil Prezident Shavkat Mirziyoyev hokimiyatga kelgandan so'ng O'zbekiston tashqi siyosatida mislsiz faollik, o'zgarishlar davri boshlanganini e'tirof etish lozim. Davlatimiz rahbari tashqi siyosiy faoliyatda ustuvor yo'nalish sifatida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro do'stona, yaxshi qo'shniçilik munosabatlari shakllantirishni ustuvor vazifa qilib belgiladi. Bu borada nisbatan qisqa davr ichida amalga oshirilgan ishlarni endilikda xalqaro hamjamiyat ham tan olgani.

Kengroq nuqtayi nazaridan qaraganda, eng muhim ijroiy natija shundan iboratki, beshta davlat xalqaro huquq subyektlari sifatida paydo bo'lib, cheksiz urushlar girdobida qolib ketishdan qochdi. 1990-yillar boshida ayrim taniqli ekspertlar tomonidan bashorat qilinganidek, Markaziy Osiyoning "bolqonlashuvi" va "afg'onlashuvi" haqidagi nomaqbul bashoratlarga amalga oshmadi.

Bunday prognozlarining paydo bo'lishi bejiz emas edi, albatta. Ochiq'ini aytganda, bundan bor-yo'li sakkiz yil oldin chegaralarimiz deyarli to'liq yopilgan, chegara hududlaridagi mojarolar va minalangan dalalar, transport blokadalar o'zaro savdo-iqtisodiy munosabatlarga ham soya solyotgan edi. Suv resurslaridan, sayolovlar va suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanish masalalari bo'yicha tinimsiz tortishuvlarning ochiq qarama-qarshilikka aylanib ketish xavfi ham yuzaga kelgandi.

Mintaqadagi ayrim kuchlar ishonchsizlik ruhini avj oldirish va umumiy tarixiy merosimizdan o'z manfaatlarini uchun foydalanish orqali muxoliflik va raqobatni keltirib chiqardi. Bularning barchasi asrlar davomida yonma-yon, tinch-totuv yashab kelgan, bir dinga e'tiqod qilgan, umumiy urf-odat va an'analarga ega bo'lgan, minglab ko'rinmas rishtalar bilan bog'langan Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy-sivilizatsiyaviy qadriyatlariga mutlaqo zid edi. Faqat O'zbekiston yetakchisi Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bilan mintaqada hamjihatlik ruhi paydo bo'ldi. O'zbekiston rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan yangi xaylit Tashqi siyosat doktrinasi Markaziy Osiyo mintaqasi O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishi etib belgilandi.

Qo'shnilar bilan hech qanday muammo bo'lmasligiga erishish eng muhim

**“ So'nggi sakkiz yil O'zbekiston tashabbusi asosida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 10 dan ziyod, jumladan, joriy yilning o'zida 4 ta maxsus rezolyutsiya qabul qilindi. Prezidentimiz tashabbuslarida jahonning yetakchi davlatlari va xalqaro institutlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. ”**

maqsad qilib qo'yildi. O'z xavfsizligini boshqa davlatlar xavfsizligi hisobiga mustahkamlashga yo'l qo'yimaslik, ochiqlik, pragmatizm va konstruktivlik, teng huquqlik, o'zaro hurmat va manfaatlarni hisobga olish tamoyillari mintaqaviy siyosatning konseptual asosiga aylandi. Natijada Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va siyosiy o'sishning o'ziga xos modellarini shakllantirishga muvaffaq bo'ldi.

O'zbekiston hukumati tashabbusi bilan davlat rahbarlari ishtirokida maslahatlashuv kengashi tashkil etilishi muhim o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bu orqali mintaqada yig'ilib qolgan muammolar – davlat chegaralarini aniqlash, xavfsizlik choralarini, oziq-ovqat xavfsizligi, migratsiya kabi ko'plab muhim sohalarda hal qilinmayotgan muammolarni yechishga yo'l ochildi. Masalalarga birgalikda yechim topish, qolaversa, har bir mamlakat milliy manfaatini inobatga olgan holda mintaqada barqarorlik muhitini qaror toptirish, samarali tashqi siyosat olib borish takliflari ilgari surildi. 2018-yil mart oyida Ostona shahrida ilk Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi. Shundan buyon davlat rahbarlari ayni formatda 6-marta uchrashdi.

Shu o'rinda, O'zbekiston uchun

Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatni shunday tizimlashtirish, yondashuvlarni maqbullashtirish, yaqinlashtirish va birga harakat qilish nima uchun muhim, degan savol yuzaga chiqadi. Eng avvalo – O'zbekiston atrofida tinchlik va barqarorlikni qaror toptirish, bu orqali mintaqamiz xalqlari farovonligiga erishish. Zero, xavfsizlik bo'lmas ekan, taraqqiyot haqida gap bo'lishi ham mumkin emas.

Mamlakatimiz tashqi siyosatida namoyon bo'layotgan ko'p qirrali faoliyat, jumladan, xorijiy davlatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan o'rnatilayotgan diplomatik munosabat, global miqyosdagi dolzarb masalalar bo'yicha ilgari surilayotgan tashabbuslar, olib borilayotgan muloqotlar, birinchi navbatda, xalqimiz tinch, xavfsiz yashashi, erkin faoliyat yuritishi, zamonaviy bilim olishi, yangi kasblarni egallashi, tadbirkorlik bilan

sog'lom va do'stona siyosiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar muhit yaratiladi.

Birinchi navbatda, qo'shni davlatlar bilan pragmatik hamda strategik munosabatlarni mustahkamladi va kengaytirildi. Ko'p yillar davomida saqlanib kelayotgan chegaraga, suv va energiya taqsimoti, erkin harakatlantirish va boshqa muammolar yechim topa boshladi. Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston va Turkmaniston kabi qardosh mamlakatlar bilan bir qatorda xalqaro hamjamiyat tomonidan doim xavf-xatar o'chog'i sifatida ko'rib kelingan qo'shni Afg'oniston bilan munosabat faollashdi. Ushbu davlatda tinchlik o'rnatish, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari o'zaro bog'liqligini ta'minlash mamlakatimiz rahbariyati tomonidan olib borilayotgan pragmatik tashqi siyosatning ijroiy natijasi ekanini bugungi kunda xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e'tirof qilinmoqda.

E'tiborli jihati, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo, investitsiya, transport, energetika va innovatsiya, "yashil" texnologiya sohalaridagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha aniq loyiha va dasturlarni amalga oshirish, turizm, ta'lim, sog'liqni saqlash, fan va madaniyat sohalarida ko'p qirrali hamjihatlikni kengaytirish, mintaqa barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash yuzasidan mushohada yuritish, zamonaviy muloqotni yo'lga qo'yishga kirishildi. Natijada Markaziy Osiyo keyingi yillarda iqtisodiy o'sish va faol investitsiya markazlaridan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Jumladan, oxirgi 7 yilda mintaqa iqtisodiyoti 6,3 foiz o'sib, YAIM miqdori 450 mlrd. dollarga yaqinlashdi. Tashqi savdo aylanmasi ikki barobar ko'payib, qariyb 225 mlrd. dollarni tashkil etdi. 2016 – 2022-yillarda Markaziy Osiyoga investitsiya kiritilishi borasidagi ko'rsatkichlar jahondagi umumiy hajmning 1,6 foizidan 2,8 foizgacha ko'tarilib, 2022-yilda qariyb 40 mlrd. dollarga yetdi. Bu – 2016-yildagiga nisbatan 50 foiz ko'p. "Boston Consulting Group" bashoratiga ko'ra 2030-yilgacha Markaziy Osiyo 170 mlrd. dollarlik investitsiya jalb qila oladi. Shuning 40 – 70 mlrd. dollari xomashyo bo'lmagan sohalarga yo'naltiriladi.

O'zbekiston dunyoning yetakchi davlatlari hamda hamkor mamlakatlar, jumladan, Xitoy, Rossiya, AQSH, Turkiya, Vengriya, Yaponiya, Hindiston, Arab davlatlari bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatni strategik hamkorlik darajasiga ko'tardi. BMT, SHHT, MDH, Turkiy davlatlar Tashkiloti, Jahon banki kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar,



moliyaviy institutlar bilan aloqalar yuqori pog'onaga ko'tarildi.

Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rib chiqayotganda, "5+1" formatining ahamiyati ortib borayotganini qayd etish joiz. Ushbu diplomatik tashabbus mintaqaviy bo'lmagan ishtirokchilarni hamkorlikka chorlash nuqtayi nazaridan muvaffaqiyatli tashabbusga aylandi. Bunday strategik yondashuv mintaqaning siyosiy mavqei va iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga yordam beradi va shu orqali uning kengroq Yevrosiyo kontekstida o'ziga xos qiymatini oshiradi. Global kuchlar bilan hamkorlikda o'z suv qutbi va muvozanatli yondashuv Markaziy Osiyo uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Masalan, Markaziy Osiyodagi ko'p tomonlama munosabatlarning vositalaridan biri "5+1" formati bo'lib, u mintaqa davlatlari va ularning xorijiy hamkorlari o'rtasidagi mintaqamiz muloqotning muvaffaqiyatli va dolzarb mexanizmi ekanligini isbotladi. Bu o'rinda gap suveren rivojlanish yo'lidan borish masalasi haqidadir. Shunday qilib, o'rta va uzoq muddatli istiqbolida mintaqamiz uchun Rossiya, Xitoy, AQSH, G'arb va Osiyo davlatlari bilan munosabatlarda muvozanatni saqlash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar davrida Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida bugungi kundagi tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlari o'z ifodasini topgan. Strategiyada mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq,

*Muhimi, O'zbekiston samarali tashqi siyosat tufayli iqtisodiy o'sish, ijtimoiy sohani rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirishga erishdi. Tashqi siyosatimiz esa barqaror rivojlanish, xavfsizlik va aholi farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Dunyodagi murakkab vaziyatni hisobga olgan holda O'zbekiston o'z tashqi siyosatini yanada takomillashtirish, dunyo bilan hamjihatlikni mustahkamlash va barqaror rivojlanish yo'lida izchil qadamlar tashlashda davom etaveradi.*

**Odiqjon MAMATKARIMOV,**  
Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.

## Davlat byudjeti ijrosi:

# MABLAG'LARDAN QAY DARAJADA SAMARALI FOYDALANILDI?

Aytilganidek, jahonda xalqaro savdodagi murakkab vaziyatlarga qaramay yalpi ichki mahsulot hajmi o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 6,8 foiz, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 6,5 foiz, bozor xizmatlari 12,6 foiz, qurilish ishlari 10,8 foiz va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish 3,8 foizga oshgan.

Shuningdek, hisobot davrida Davlat byudjeti daromadlari 104,5 foizga bajarilgani hamda xarajatlari bo'yicha reja ko'rsatkichlari 92 foizni tashkil qilgan byudjet barqarorligi ta'minlanayotganidan dalolat bermoqda.

Muhokama davomida erishilgan natijalar bilan birga, ayrim xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilgani tanqidiy baholandi. Fraksiya a'zolari ushbu kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish bo'yicha qator taklif va tavsiyalar berdi.

Kun tartibidagi barcha masala atroficha ko'rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida aytilganidek, ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirishga Davlat byudjetidan umumiy xarajatlarning 49 foizi miqdorida mablag' sarflangan. Ijtimoiy soha xarajatlarning asosiy qismi, ya'ni 46,8 foiz ta'lim muassasalarini saqlash va ularni rivojlantirishga sarflangan.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida umumiy o'rta ta'lim maktablari soni 2024-yilda 10 050 tani tashkil etgan va ularni saqlash xarajatlari uchun byudjetdan 36 203,5 mlrd. so'm mablag' xarjlangan.

Fraksiya a'zolari "El-yurt umidi" jamg'armasining xarajatlari ijrosi masalasiga ham e'tibor qaratdi. Ta'kidlanganidek, jamg'armaning o'tgan yildagi xarajati atigi 383,4 mlrd. so'mga yetgan. Vaholanki, "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonunning 3-ilovasi bilan mazkur jamg'arma xarajatlarning cheklangan miqdori 560,8 mlrd. so'm etib tasdiqlangan edi. Jamg'arma xarajatlarning haqiqatdagi ijrosi qonun bilan cheklangan miqdorga nisbatan 171,4 mlrd. so'mga kam yoki 68,4 foizga jiro qilingan xolos.

Deputat Bahodir Mamatxonov Davlat byudjetning 2025-yil birinchi chorakdagi ijrosi muhokamasida maktablarda kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun bepul to'g'araklar ochish masalasini ko'tardi.

Deputatning qayd etishicha, fraksiya tashabbusi bilan bu maqsad uchun 2025-yil byudjetidan qo'shimcha 200 mlrd. so'm ajratish masalasi hal qilingan edi. Lekin joylardagi o'rganishlardan ma'lum bo'ldiki, bu boradagi ishlar hamon boshlanmagan.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi vakili bu masala bo'yicha tegishli idoralar bilan kelishib, qaror loyihasi tayyorlangani va u yaqin kunlarda imzolinishini aytdi.

Fraksiya a'zosi Kozim Tojiyev esa maktablarda o'quvchilarning yozgi ta'limi mazmunli tashkil etish maqsadida yo'lga qo'yilgan "Dolzarb 90 kun" loyihasi masalasini ko'tardi. Deputatning ta'kidlashicha, o'qituvchilardan loyihaga ayni paytda yozgi ta'tilga chiqqan ustozlar ham jalb qilinayotgani yuzasidan e'tirozlar bo'lmoqda. Lekin ular qo'shimcha rag'batlantirilayotgani yo'q.

Ushbu masala bo'yicha ham tegishli mutasaddilardan atroficha izoh olindi.

Muhokamada ushbu hisobot deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanib, byudjetdan ajratilgan har bir so'mdan samarali va maqsadli foydalanish lozimligi ta'kidlandi.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida bugungi murakkab iqtisodiy va moliyaviy vaziyatga qaramasdan aholi salomatligini muhofaza qilishga davlat tomonidan ustuvor ahamiyat berilgani alohida ta'kidlandi. Xususan, tibbiyot xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlash va soha infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilgani qayd etildi.

2024-yil yakuniga qadar Davlat byudjetining daromad qismi 274,4 trln. so'mni tashkil etgani va bu ko'rsatkich 2023-yildagiga nisbatan 18 foizga oshgani ma'lum qilindi. Markazlashgan investitsiya loyihalari doirasida sog'liqni saqlash sohasidagi 178 ta tibbiyot muassasasini qurish va ta'mirlash uchun 1,4 trln. so'mdan ziyod mablag' o'zlashtirilgan.

Deputatlar tibbiyot muassasalarini zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash uchun 114,2 mlrd. so'm mablag' ajratilganini, bu ishlar natijasida 156 ta tibbiyot obyekti foydalanishga topshirilib, 13 122 o'rinni va 10 570 qatnovli bino hamda 30 ta turli tibbiyot inshootlari barpo etilganini e'tirof qildi.

Muhokama davomida fraksiya a'zolari tomonidan ayrim vazirlik va idoralar mablag'larni o'z vaqtida o'zlashtirmagani, ularning samarasiz



va noto'g'ri yo'naltirilgani, subsidiya va imtiyozlarni taqsimlashda qator kamchiliklarga yo'l qo'yilgani tanqid qilindi. Xususan, fraksiya a'zosi Narimom Umarov maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi holatlarga to'xtalib, ushbu tizim yuqori natijalarga erishib kelayotganiga qaramay rejalashtirilgan 12 mlrd. so'mlik subsidiyalarning faqat 27 foizi amalga oshirilganini bildirdi. Shuningdek, o'quv darsliklarining yetishmasligi va bu bo'yicha mutasaddi tashkilotlarning harakatlari ham alohida tilga olindi.

Deputatlar ushbu sohani yanada rivojlantirish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bir qator taklif va tavsiyalar berdi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dunyodagi murakkab vaziyat, kutilmagan iqtisodiy va moliyaviy qiyinchiliklarga qaramasdan Hukumat tomonidan aholining ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy himoya qilish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilayotgani, umumiy ijtimoiy barqarorlik ta'minlanayotgani aytiladi.

2024-yilda Davlat byudjetining daromadlari 274,4 trln. so'mni tashkil etib, o'tgan yildagiga nisbatan 18 foiz oshgan. Ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish uchun Davlat byudjetidan 153,2 trln. so'm yoki umumiy xarajatlarning 49 foizi sarflangan.

Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan tadbirlarni

moliyalashtirish uchun Davlat byudjetining 12 foizi sarflanib, 720 mingga yaqin aholi kambag'allikdan chiqarilgan. Bu natijalar O'zXDP elektorati manfaatlarini ta'minlashda dolzarb ijtimoiy ahamiyatga ega ekanini bildirdi.

Deputatlar hisobotda vazirlik va idoralar tomonidan mablag'lar o'z vaqtida o'zlashtirilmagani, samarasiz ishlatilayotgani, noto'g'ri ajratilgan subsidiyalarning mavjudligi, imtiyozlar noo'rin ajratilganini ta'kidlab, ularni bartaraf qilish bo'yicha takliflar berdi.

Fraksiya a'zosi Firdavs Sharipov aholi bandligini ta'minlash va ish o'rnlari yaratishga qaratilgan dasturlarni moliyalashtirishda yanada aniq mexanizmlar ishlab chiqish zarurligini, kam daromadli oilalar uchun uy-joy masalasini hal etishda davlat jamg'armalari ishtirokini kuchaytirish lozimligini bildirdi.

Shu bilan birga, deputat Imomnazar Tursunov yoshlar va nogironlari bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan xarajatlarni samaradorligini oshirish bo'yicha o'z taklif va tavsiyalarini berdi.

Hisobot muhokamasida davomida deputatlar Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish, unda aholi manfaatlarini to'la aks ettirish masalalari haqida fikrlar bildirib, ko'rib chiqilgan masalalarni qo'llab-quvvatlatdi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida fraksiya a'zolari tomonidan ekologiya

va atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, chiqindilarni yig'ish va ularni qayta ishlash, Orolbo'yi hududida ekologik holatni yaxshilash, qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va yangi samarali uslublarni qo'llash hisobiga yer unumdorligi hamda uning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlariga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlaridan ajratilgan mablag'larning natijadorligiga e'tibor qaratildi.

Ta'kidlanganidek, 2024-yilda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi tadbirlari uchun Davlat byudjetidan 6,2 trln. so'mga yaqin mablag' yo'naltirilgan. Mazkur mablag'lar ichimlik suvi va oqova suv tozalash inshootlarini qurish va qayta ta'mirlashga, atmosfera havosi, o'simlik va hayvonot dunyosi muhofazasiga, suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilishga, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va chiqindilarni utilitatsiya qilish joylarining davlat kadastrlarini yuritish bilan bog'liq xarajatlarga, Orolbo'yi'da amalga oshirilayotgan ekologik tadbirlarga sarflangan.

Joriy yilning birinchi choragida ekologiya va atrof-muhit muhofazasi tadbirlari uchun Davlat byudjetidan 913,1 mlrd. so'm mablag' yo'naltirilgan. Hisobot davrida Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo'yi mintaqasida 124,5 ming gektar, tog'oldi va boshqa hududlarda 1,5 ming gektar maydonda o'rmon barpo etish va qayta tiklash tadbirlari bajarilgan.

Shu bilan birga, o'rmon tadbirlari uchun 700 tonna cho'l va boshqa turdagi o'simliklar urug'lari tayyorlangan. Xo'jaliklarda 487 gektar niholxon va ko'chatxonalar tashkil qilingan. Cho'l, tog' va tog'oldi hududlarida cho'l'lanish va qum ko'chishi, suv va tuproq eroziyasining oldini olish hamda ekologik muhitni yaxshilash maqsadida 257 gektar maydonda himoya o'rmonzorlari (ihota) barpo etilgan.

Yig'ilishda fraksiya a'zolari tomonidan Orolbo'yi hududida amalga oshirilayotgan ekologik tadbirlarni, o'simlik va hayvonot dunyosi muhofazasi, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi xarajatlarni, chiqindilarni yig'ish, zararsizlantirish va utilitatsiya qilish uchun ajratilgan mablag'larni o'z vaqtida hamda to'liq o'zlashtirish, ulardan oqilona foydalanish yuzasidan taklif va tavsiyalar bildirildi.

"Xalq so'zi".

## FARG'ONA VILOYATI:



Farg'ona ne-ne asrlar mobaynida turi kunlarni boshdan kechirib, o'zligi, ko'ruqviqorini avaylab saqlab kelgan. Otashqalb shoir Cho'ponning quyidagi misralari uning yaqin tarixidan so'zlaydi:

*Ey go'zal Farg'ona, qonli  
ko'yilgandigan aylanay,  
Tarqalib ketgan qora,  
vahshiy sochingga boylanay...*

*Vahshiy bir o'rmon kabi  
bag'ringni bosmishtir qamish,  
Ko'zlarigda hech ko'rinnas  
bir olov, bir o't yonish...*

Shukrki, jaded bobolarimiz orzulari ro'yobga chiqdi: bir asrdan ziyod hukm surgan mustamlaka o'rni ozod va hur O'zbekiston qad rostladi. Shu nazardan qaralsa, bugungi Farg'ona hurriyat libosi bilan bezangan. Osmonida baxtning yulduzi o'ynagan, bag'rida qamish emas, xalq xizmati uchun qurilgan bino va inshootlar qad rostlagan, xalqida shijoat, ishonch, erkinlik o'ti yongan.

Xalq og'zaki ijodida "Bir qozonda qirx xil taom" degan ertak bor. Shu gap farg'onaliklar sha'niga aytilgandek. Bir daraxtdan o'n xil meva, bir qarich yerdan qirx xil ne'mat oladiganlar ham shu kishilar. Chunki uy tomiga gul yoki sabzavot ekanlar, bir necha qavat issiqxonalar qurganlar, har bir uzumning boshini alohida o'rab parvarishlab, misli ko'rilmagan hosil yetishtirgan ham farg'onaliklar.

Fan, san'at va adabiyotni aytmaysizmi? Duniyodagi ilk shoir ayollar maktabi Qo'qonda bo'lgani haqiqat. Duniyoviy fanlarda Ahmad Farg'oniy dovrug'i olamga taralgan bo'lsa, Qo'qondan Abu Toyiyib Tahir ibn Muhammad Xo'qandiy, Marg'ilonidan esa Burhoniddin Marg'ioniy, Ali ibn Abdulaziz Marg'ioniy, Al-Hasan ibn Ali Zahiruddin Marg'ioniy, Shayxul-imom Abu-laimma Abdulaziz Marg'ioniy kabi zotlar yetishib chiqqani faxrimiz.

Farg'ona san'ati, ayniqsa, baland pardalarda boshlanib avjga chiqadigan va bir nechta avjdan iborat mumtoz qo'shiqchiligi dunyoda yagona bo'lsa ajabmas.

Agar ikki ming yil oldin Farg'ona tevarak-atrofidagi Qang'li, G'uzer, Xunlar davlati va Xan imperiyasi bilan aloqalarni yo'lga qo'ygan bo'lsa, bugun dunyoning o'nlab davlatlari bilan teng huquqli amaliy aloqalar ishtirokchisi. So'nggi

yillarda Misr, Afrika o'lkalari, Marokash, Peru, Kosta-Rika, Kolumbiya, Kanada, Buyuk Britaniya, Serbiya, Slovakiya, Argentina, Iordaniya, Kuvayt, Fransiya singari mamlakatlardan bilan hamkorlik ko'lami kengayib borayotir. Bu yerda ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksporti Italiya, Yaponiya, Ispaniya, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Tunis, Turkiyaga avvalgidan ko'ra bir necha barobar ortgan. Turli mamlakatlardan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni investitsiya kiritishi yurtimizning osudaligi va ishonchligini oshiradi.

## Birga o'n, yuzga ming

Hudud sanoatida kechagina "noldan birni yaratish" uchun jon kuydirilgan edi. Bu ko'lam qonunchilikni yangi davrga moslash, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va raqamlashtirish orqali bunyod bo'ldi. Jamiyat taraqqiyotida "no" va "bir" nimani anglatishini zukko kishilar biladi, albatta. Endilikda esa "birdan mingni yaratish" tamoyiliga o'tildi. Keyingi bosqich "mingdan millionni yaratish" bo'lishi Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida marra qilib belgilangan.

Dalillarga murojaat qilsak: kechagina Farg'onaning bir yillik investitsiya marrasi yarim mln. dollar edi. Bugun tumanlardagi oddiy tadbirkorlarning aylanma mablag'i bundan ko'proq. Viloyat miqyosida birgina o'tgan yilning o'zida umumiy qiymati 1,8 mlrd. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirilib, 35 ta yirik ishlab chiqarish quvvati ishga tushirilgan. So'nggi yetti yilda esa viloyatda sanoat korxonalar 2,8 barobar ko'payib, 13 mingtaga yetdi. Bu yil viloyat iqtisodiyot tarmoqlariga 3,7 mlrd. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoya jalb etilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, 1,5 mlrd. dollarlik mahsulot eksport qilish ko'zda tutilgan.

Prezidentimizning 2024-yil 11-12-iyul kunlari Farg'ona viloyatiga tashrii davomida tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash maqsadida Qo'qon shahrida maxsus sanoat zonasini – Qo'qon texnoparkini tashkil etish topshirig'i berilgan edi. "Qo'qon fenomeni" deb nom olgan bu zamonaviy kompleks uchun 230 gektar yer ajratilib, dastlabki bosqichda 1,5 mlrd. dollarlik loyihalarni amalga oshirish va kamida 5 mingta ish o'rni yaratish bo'yicha sa'y-harakatlarga kirishildi.

O'tgan yili viloyatda sanoat, xizmat ko'rsatish, qurilish va qishloq xo'jaligi sohalarda 1182 ta loyiha foydalanishga topshirilib, 36 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilgan. Natijada neft, kalava ip,



tikuv-trikotaj, kimyo, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi va qurilish, elektrotexnika, charm, farmatsevtika tarmoqlari viloyat iqtisodiyoti drayveriga aylanib ulgurdi.

Bu yil viloyatda 450 mingga yaqin yuqori daromadli ish o'rinlari yaratilib, yalpi hududiy mahsulot hajmini 108,3 trln. so'mga yetkazish maqsad qilingan. 6 mlrd. dollar miqdoridagi investitsiya loyihalarini boshlash hamda 1,2 mingta investitsiya loyihasi amalga oshirish rejalashtirilgan. Shahar va tumanlarda 1210 gektar yerda Xitoy tajribasi asosida "Farg'ona: yangi imkoniyatlar" deb nomlangan maxsus sanoat zonalarini tashkil etiladi.

Viloyat tadbirkorlari delegatsiyalarini dunyoning eng rivojlangan davlatlariga xizmat safarlariga yuborish, o'zaro tajriba almashish va yangi hamkorlar jalb qilishga qaratilgan amaliy ishlar doirasida imzolangan hujjatlar bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Unga ko'ra, umumiy qiymati 5,2 mlrd. dollar bo'lgan 158 ta loyihani amalga oshirishga kirishildi.

Hozirgi kunda viloyatda dunyoning 30 dan ortiq mamlakatlariga qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari eksport qilinayotgan bo'lsa, mavjud xorijiy korxonalar soni 800 dan ziyodni tashkil

## YANGILANISH,

etadi. Xitoy, Janubiy Koreya, Rossiya, Germaniya, Singapur, Tailand singari davlatlar bilan investitsiyaviy hamkorlik ko'lami yildan-yilga kengayib bormoqda. Shu kunlarda Rossiya Federatsiyasining Omsk hududida Farg'ona bulg'urji taqsimlash logistika markazining birinchi bosqichi ishga tushdi. Bunday markazlar tez orada boshqa mamlakatlarda ham ish boshlaydi.

Ayni jarayonda shahar va tuman hokimliklari hamda Markaziy bank bilan hamkorlikda Jahon banki mablag'laridan moliyalashtirilishi ko'zda tutilgan umumiy qiymati 34 mln. dollarlik 28 ta istiqbolli loyihaning manzili ro'yxati shakllantirilgan.

Viloyatdagi qulay sarmoyaviy muhit, xorijlik tadbirkorlar ishtirokida ochilayotgan yangi korxonalar haqida gap ketganda, nuroniylar davrasida, hatto mahallalardagi oddiy gurunglarda ham "Dunyo bilan bo'yilish xayrli ish. Ularni ko'rib, tadbirkorlarimizning ko'zi pishsin, tajribasi oshsin", degan fikrlar yangraydi. Ha, investitsiyaning raqamlardan tashqari

So'x – yurtimizdagi islohotlar eng chet hududlarga yetib borayotganiga yorqin misol. Hazrati Bobur qadami yetgan, bir necha ming yillik tarixiy bu maskan endi turistik markazga aylanmoqda. Yana bir faxrli tomoni – o'z aeroportiga ega!

Viloyatda Farg'ona va Qo'qon aeroporti xalqaro darajada ta'mirlanib, ishga tushirildi. Albatta, xalqaro yorliq olish uchun aeroport zamonaviy talablarga monand bo'lishi kerak. Viloyatda ayni jihatga alohida diqqat qaratilayapti. Zotan, aeroport – misoli darvoza. Hududga kelgan kishi borki, avvalo, mana shu darvozadan bo'ylaydi. Shu bois uning chiroyi, muhtashamligi, yo'lovchilarga qulayligi, shinamligi muhim.

Aslida, Farg'onada dunyoga ko'z-ko'z qilishga arziydigan maskanlar anchagina. Marg'ilon, Rishton, Mindon, Quva, Vodil, Shohimardon – bular vodiyning ko'hna go'shalari. Jozibador sayyohlik manzili o'laroq ularning har birida etno va ekoturizm, tibbiyot hamda gastronomik turizm yo'nalishlari rivoj topishi yo'lida talay ishlar amalga oshirilmoqda. Etnoturizmning o'ziga xosligi – xorijiy sayyohlar qishloqqa kelib bir necha kun yashashadi, xalqning urflari, to'y-marosimlariga shohid bo'lishadi. Vodiyning "turizm qishloqlari"da xalqimizning fazilatlarini, an'analarni lol qolgan turistlarni ko'p uchratish mumkin. Sayyohlar to'y-marosimlarimizni, bayramlarimizni ko'rib, angrayib qolganiga ko'pchiligimiz guvohimiz. Hunarmandchilik, san'at va urflar, kulinariya turizmining o'ziyoq minglab sayyohlarni o'ziga mahliyo qiladi. Rishton palovining shuhrati allaqachon ummonlar osha o'zga yurtlarga yetib borgan. Yana bir qiziq yo'nalish rivoj topmoqda: bu "asal oyi" turizmi. Bugun sayyohlar qatorida xorijlik yoshlarni ham ko'rsa bo'ladi.

Bu yil Farg'ona yarim mln.ga yaqin xorijlik sayyohni kutib olishni ko'zlagan. Buning uchun viloyatdan Xitoy, Janubiy Koreya, Hindiston, Yaponiya, Malayziya, Fransiya, Germaniya, Italiya kabi davlatlarga aviaqatnovlar yo'lga qo'yiladi. Mahalliy sayyohlar uchun "Oltin vodi" turizm halqasi tashkil etiladi. Viloyat hokimligi tashabbusi bilan joriy yilda Rishton tumanidagi Mamadali Topvoldiyev nomidagi mahalla fuqarolar yig'ini "turizm mahallasi"ga, Farg'ona shahridagi Sohibqiron Temur ko'chasi "turizm ko'chasini"ga aylantirilmog'da. Avval Chimyon, Vodil, Shohimardon va



Isojon SULTON,  
O'zbekiston xalq yozuvchisi.

Yordon qishloqlarini "turizm qishlog'i"ga aylantirish bo'yicha belgilangan yumushlar nihoyasiga yetkazilayapti. Quvadagi Karkidon, Yozyovondagi Markaziy Farg'ona suv ombori hududlarida ekoturistik manzillar barpo etish ishlariga qaratilayotgan e'tibor va rag'bat tufayli mehmon uylari 264 taga hamda yulduzli toifadagi mehmonxonalar soni 10 taga yetkazildi. Bugungi kunda viloyatda 124 ta turoperator va 44 ta turagent faoliyati yo'lga qo'yilgan. Hozirda Farg'ona tumanining Shohimardon hududida zamonaviy turizm komplekslari hamda So'x tumanida So'x daryosi sohil bo'yli va tog' yonbag'ri hududlarida zamonaviy majmualar tashkil qilish bo'yicha rejalar ishlab chiqilmog'da.

## Mintaqa rivojiga daxldor loyihalar ishtirokchisi

Yaqinda olam sayqali bo'lmish Samarqandda "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" sammiti bo'lib o'tdi. Unda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan ko'p qirrali tashabbuslar mintaqalar manfaatlarini yo'lida sheriklik va amaliy hamkorlikni chuqurlashtirishga turtki bo'ladi.

Jahon davlatlarining yangi O'zbekistonga e'tibori va hamkorlikka intilishi bejiz emas. Chunki mamlakatimiz nomidan bildirilayotgan takliflar mintaqani yangi pog'onaga yuksaltirishga xizmat qiladi. Yaqin kelajakda mamlakatimiz Osiyo va Yevropa davlatlarini bog'laydigan o'ta muhim o'tkazgichga, ya'ni xabga aylanadi. Texnologiyalar, bilimlar, mablag' va axborot oqimlari daryosi yurtimizdan o'tadi. Jamiyatimiz, ayniqsa, yoshlarimiz



"CASE-IN" xalqaro muhandislik chempionatining "Metallurgiya" yo'nalishi bo'yicha MISiSning Olmaliq filialida tahsil oluvchi talabalar jamoasi ikkita maxsus mukofotga sazovor bo'ldi.

Faxr



## O'zbekistonlik talabalar xalqaro musobaqada sovrindor bo'lishdi

2025-yilgi mavsumda BRICS va MDHga a'zo mamlakatlardan 1,5 mingdan ortiq talaba va maktab o'quvchilari ishtirok etdi. May oyida bo'lib o'tgan final bosqichi saralash va yarimfinal bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgan 600 nafardan ortiq ishtirokchilarni jamladi. "Metallurgiya" yo'nalishida O'zbekiston vakillari talabalar ligasida faxrli uchinchi o'rinni egalladi.

Aytish joizki, "CASE-IN" xalqaro muhandislik chempionati 2013-yilda boshlangan muhandislik musobaqalarining eng yirik tizimi bo'lib, MDH va BRICS mamlakatlari maktab o'quvchilari, talabalar va yosh mutaxassislarini qamrab oladi.

"Xalq so'zi".

## ILG'OR QURILISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA QAD ROSTLAYOTGAN MAJMUA

O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko'paytirish, xususan, gidroenergetika tarmog'ini yanada rivojlantirish borasida keng ko'lami amaliy faoliyat olib borilayotir. Bu borada "O'zbekgidroenergo" AJ tomonidan gidroenergetik salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda yangi gidroelektrostansiya (GES)larni barpo qilish ishlari jadal sur'atlarda amalga oshirilayotir.

## Gidroenergetika

Xususan, Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga asosan Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi Chotqol daryosining belgilangan hududida qurilish ishlari reja asosida izchil davom ettirilayotgani fikrimiz dalildir. Ayni paytda bu yerda "Quy Chotqol" GES qurilishi jarayoni qizg'in. Barpo etilayotgan ushbu gidrotexnik inshoot loyihasi har bining quvvati 22,5 MVt. bo'lgan 4 ta gidroagregatni o'rnatish mo'ljallangan. Ushbu GESning o'rnatilgan quvvati 90 MVt. bo'lib, yillik o'rta elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 300 mln. kVt/soatga teng, ya'ni GES quvvati kelajakda o'rta 125 ming xonadonni elektr energiyasi bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Mutaxassislar fikricha, obyektning to'liq ishga tushirilishi 81,0 mln. kub metr gacha tabiiy gazni yoki 250 ming tonna ko'mirni iqtisod qilish imkonini beradi. Inshoot gidrologik rejimga ta'sir qilmaydi, gidrobiologik obyektlarga



zarar yetkazmaydi hamda atrof-muhit hamda tabiat o'zgarishiga ta'sir ko'rsatmaydi.

E'tiborli jihati, qurilish ishlari doirasida mamlakatimiz va Markaziy Osiyoda ilk bor yangi zamonaviy texnologiyalar asosida birinchi marta to'g'on konstruksiyasi bosib zichlangan (ukatanni) betonli usulda quriladi. To'g'on balandligi 60 metr, uzunligi 270 metr, to'g'on ushi 7,5 metri tashkil etadi. Suv ombori hajmi 6,8 mln. kub metrga teng.

Mazkur tipdagi to'g'on qurilishi loyihani amalga oshirish muddatini 2 barobar qisqartirish hamda suv ombori

kunlik suv sarfini samarali boshqarish imkonini beradi. Natijada mazkur mustahkam to'g'on quriladigan GES kun davomida elektr energiyasiga talab keskin oshgan davrda, ya'ni rostlovchi quvvatlarda elektr energiyani ishlab chiqarish imkoniyatini yuzga keltiradi.

To'g'on qurilishida "RCC" ("Roller-compacted concrete" – bosib zichlangan beton) dan foydalaniladi, ya'ni to'g'onning asosiy qismi (195 ming m<sup>3</sup>) bosib zichlangan beton dan iborat bo'ladi. Umuman, undan foydalanishning afzalliklari ko'p.

Darvoqe, ushbu istiqbolli loyihada mamlakatimiz tarixida ilk bor jahon standartlari asosida to'g'on va GES binosi yaxlit inshoot sifatida qurilmog'da. Mazkur loyiha yakuniga yetkazilib, foydalanishga topshirilgandan so'ng, 120 nafardan ortiq mahalliy yosh mutaxassislar doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlanadi.

Ta'kidlash joizki, Chotqol daryosida amalga oshirilayotgan mazkur yirik gidroenergetik loyiha nafaqat Toshkent viloyati energetika tizimida muhim ahamiyat kasb etadi, balki viloyat aholisining ekologik toza va arzon elektr energiyasi bilan ta'minlash imkonini beradi.

Mamlakatimizning bir guruh ommaviy axborot vositalari vakillari ushbu obyektga bo'lib, gidroelektrostansiyaning qurilish jarayoni bilan tanishdi. Press-tur davomida qayd etilganidek, rejaga binoan, Quy Chotqol GESni joriy yilning mustaqillik bayrami arafasida qurib bitkazish hamda ekspluatatsiyaga topshirish kutilmog'da.

"Xalq so'zi".

Davronbek ERNAZAROV  
olgan surat.

# TARAQQIYOT VA ISTIQBOL

ushbu ulkan "sakrash"ga tayyor bo'lishlari kerak, albatta.

Bugun ko'zlangan orzular ro'yobga chiqmoqda. Yangi O'zbekiston yangi Buyuk Ipak yo'lining juda muhim ishtirokchisiga aylanayotir. Bunda esa, tarixda bo'lgani kabi, Farg'onaning o'zini muhim. Shu bois viloyatning Zo'yovon, Buvayda, Dang'ara kabi qator tumanlari hududidan o'tuvchi xalqaro avtomagistral yo'llari bo'yida jahon andozlari darajasida transport-logistika markazlari, muhtasham xizmat ko'rsatish va servis shoxobchalari qad rostlamoqda. Keng qamrovli bunday sa'y-harakatlar yaqin istiqbolda Farg'onani Buyuk Ipak yo'lidagi javohiriga aylantirishga shak-shubha yo'q.

Yaqin yillarda viloyat iqtisodiyoti Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi, "Farg'onazot", "Kvars" singari bir necha yirik korxonalar faoliyatiga bog'liq edi. Keyingi yillardagi yangilanish va o'zgarishlar tufayli bugungi kunda viloyatda 60 mingga yaqin kichik biznes subyektlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bu viloyatda 8 mingta kichik biznes subyekti orqali hududlarda 42,5 mingdan ko'proq mikroviyohalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari nufuzli minbarlardan mintaq va jahon iqtisodiyoti rivojiga daxldor dolzarb loyihalarni ilgari surar ekan, ularni ro'yobga chiqarishga qaratilgan ulkan jarayonda Farg'onaning ham ishtirokini ko'zda tutayotganidan faxrlanamiz.

## Yashil bo'ston

Bundan o'n yillar burun Oltiariqdan Farg'onagacha yo'ning bir tarafi qip-qizil dasht edi. Hozir u yo'ldan o'tgan kishi tanimay qoladi: har ikkala tomonida ham bog'lar barpo etilgan, chaman-chaman gullar ochilgan. Bugun dasht yerlarda ham yashil maydonlar tashkil qilinmoqda, shu bilan birga, butun aholi "Har oilaga bir daraxt" tamoyili asosida bog'u rog'lar bunyod etishga chorlanmoqda.

Xalqning jipsligi, birdamligining qudrati shunda namoyon bo'ladi. "Farg'onada o'rmon yo'q", deyishadi kishilar. Ammo har bir kishi ota-onasiga, oilasiga yoki farzandlariga atab bir tup ko'chat ekma, millionlab daraxtdan iborat o'rmon paydo bo'ladi. "Daraxt ekib, bog' yarat. Odam yesayam, qurt bosh yesayam, bir kishi soyasida salqinlasayam savob", deyildilar.

Birgina "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida viloyatda 2022-yildan buyon 65 million tupga yaqin daraxt ko'challari ekildi. Ezgu tashabbus davomida har bir shahar-tumanda yashil jamoat parklari, "yashil belbog'lar", yashil yo'bonalar hamda ko'kalamzorlashtirilgan hordiq chiqarish maskanlari tashkil etilayotgani e'tiborga molik. Natijada yildan-yilga viloyatda yashillik darajasi jahon andozlariga mos tarzda oshib bormoqda.

Hozirgi kunda viloyatda 49 ming gektar mevali bog'lar mavjud va e'tiborlisi, atigi so'nggi bir yilda samarasizlari o'rnida 5 ming gektar intensiv bog'lar barpo etildi. Ayni jarayonda So'x tumanining Javpaya massivida 210 gektar maydonda intensiv o'rik bog'i bunyod qilinib, 0,5 gektardan ijara asosida kam ta'minlangan oilalarga bog' berildi. O'tgan yili Farg'ona tumanining qir-adir yerlarida turkiyalik investorlar tomonidan 70 gektarda sanoatlashgan intensiv bog' yaratilgan bo'lsa, joriy yilda yana 200 gektar yerda ana shunday bog' barpo etish maqsad qilingan.

## Kim kambag'al?

Xalqning o'ziga xos g'ururi, oriyati bor, birovga "Kambag'alimisiz?" desangiz, "Tepamda boshpanam, yonimda o'g'il-qizim, qavmu qarindoshim bor, nega kambag'al bo'lay?" deya javob beradi. Bu "Boy boy emas, qanoat qilgan boy", degan hikmatli gapning xalqona yo'sinda tilga chiqqani.

Biroq bugun yurtimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga g'amxo'rlik ko'rsatishda so'rab-surishtirishgagina asoslanib qolmay, raqamli texnologiyalar vositasida amalga oshiriladigan zamonaviy mexanizmlar hayotga tatbiq etilgan. Kambag'allikka qarshi kurash borasidagi keng ko'lamli ishlar kishilarga yetarli ta'minlangan holda hayot kechirishi va bu borada o'zidagi qobiliyatlarini ro'yobga chiqara olishi uchun ko'mak berishni ko'zda tutadi.

Taqdir taqozosi bilan boshpanasidan, boquvchisidan, daromad manbaidan ayrilgan oilalar to'la qo'llab-quvvatlanmoqda. Kambag'al sanalagan oilaga avval yaqinlari, mahalla-ko'y baholi qudrat ko'maklashgan bo'lsa, endi bu xayrli ishni davlat o'z zimmasiga oladi.

Amalga oshirilgan hayotbaxsh islohotlar natijasida oxirgi uch yilda

Farg'ona viloyatida 217 ming nafar fuqaro kambag'allikdan chiqarildi. "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida bunday oilalarning har biri bilan alohida reja asosida ish olib borilmoqda. Buning hisobiga joriy yil yakuni bilan yana 150 ming fuqaroni ehtiyojmandlikdan xalos etish, viloyatda kambag'allik darajasini 5 foizga tushirish ko'zda tutilgan.

Har bir oila muqim daromadga ega bo'lishida mahallabay, xonadonbay ishlash tizimi yo'lga qo'yilgani ijobiy samara bermoqda. Ayni paytda viloyatdagi 1063 ta mahallaning har birini aniq bir yo'nalishga ixtisoslashtirishga jiddiy e'tibor qaratilyapti. Bugunga qadar mahallalarning 220 tasi sanoat, 281 tasi dehqonchilik, tomorqachilik, 238 tasi ko'chatchilik, gulchilik, uzumchilik, 144 tasi xizmat ko'rsatish sohasiga ixtisoslashtirildi. Yaqin istiqbolda mahallalar ishsizlikdan xoli hududga aylantirilib, har biri uchun jadal rivojlanishning yetakchi sohalari faol rag'batlantirildi.



## To'qson ming aql

Raqamlarga ko'ra, viloyat aholisi yiliga o'rtacha 90 mingga ko'paymoqda. Bu shuncha kuch, salohiyat, aql, tafakkur degani. Faqat ularni ulug'vor maqsadlarga monand ilg'or bilimli mutaxassislariga aylantirish alohida e'tiborni talab qiladi.

Bugungi kunda Farg'ona viloyati oliy ta'lim muassasalari soni va qamrovi bo'yicha mamlakatimiz hududlari orasida yetakchi o'rinda turadi. 2025-yili viloyatda oliy ta'lim qamrovini 40 foizga, 2029-yilda 60 foizga yetkazish ustuvor vazifalar sirasiga kiritilgan.

Maktab ta'limida milliy tajriba Yaponiya ta'lim tizimi asosida yanada takomillashtirilayotir. Ayni maqsad yo'lida Farg'ona viloyati delegatsiyasi bir necha marotaba Kunchiqar yurtda o'zaro tajriba almashib keldi. Hozirda viloyatning 19 ta shahar-tumanda bittadan maktab tajriba tariqasida tanlab olinib, ularda ta'lim-tarbiya jarayoni yapon ta'lim tizimiga muvofiq tarzda olib borilmoqda. Yaponiyadan tajribali mutaxassislar ham jalb etilgan.

O'rta bo'g'in mutaxassislari tayyorlashda esa viloyatdagi 77 ta kasbiy ta'lim tashkilotida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadida Germaniya tajribasi bo'yicha bir paytning o'zida ham o'qish, ham ishlash imkonini beruvchi dual ta'lim tizimi keng joriy

etilayotir. Bu tajriba kasb-hunar maktabi va texnikumlarda yaxshi samara berib, yoshlarning muayyan kasb-hunar egasi bo'lib yetishib chiqishini ta'minlaydi.

Matematika, fizika, biologiya kabi yo'nalishlar qatorida muhandislar tayyorlash ishiga ham e'tibor katta. Sababi yana mamlakatda ro'y berayotgan jarayonlarga borib taqaladi: avval xayolga ham kelmaydigan yangi ishlab chiqarish obyektlari qurilmoqda, ulardagi uskuna va jihozlarni ishlata olishgina emas, ta'mirlash va rivojlantirishni bajara oladigan muhandislar qatlamini shakllantirish kun tartibida turibdi. "Oltin o'zimizda. Uni chetdan keltirishga ne hojat?!" deyishadi ulug'lar. "Oltin" deyilganida yoshlar nazarda tutiladi, albatta. Viloyatda "Bir million dasturchi" loyihasi keng yoyildi, turizm, ilg'or texnologiyalar, axborotlashtirish yo'nalishlari, zamonaviy marketing ommalashdi, shu bilan birga, boshqaruvning zamonaviy, raqamlashtirishga asoslangan usullari kirib keldi.



to'n, qo'qoncha do'ppi kiydirib, beliga o'zbekcha belbog' bog'laymiz. Misol uchun, yangi texnologik zavod qurildi. An'anaga ko'ra nutq so'zlab, tasma qirqlilishi kerak. Ammo urfimizga ko'ra ko'pni ko'rgan oqsoqollardan duo so'raladi. Ular esa "Elining koriga yarasin, uzoq yillar xalqqa xizmat qilsin, xayr-baraka keltirsin", degan tilaklarni bildiradi. Buni xalqimiz "qut-baraka" deb ataydi.

Ma'naviyat borasida dunyoga o'rnak bo'lgan xalqimizning asriy an'ana va qadriyatlarini saqlab qolish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri.

Xalqimiz mahdudlik davrlarida og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan qadriyatlar tufayli o'zligini tanib keldi. Endilikda davlatimiz o'zlik, an'ana va qadriyatlarini avaylab saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish uchun huquqiy asoslarni yaratib berdi. Biroq katta maqsadlarni ko'zlangan tashabbuslar bilan keng xalq ommasini o'zaro bog'lovchi bilim almashish tizimida oqsashlar bor. Tinimsiz o'zgarayotgan dunyoda o'zlikni anglamasdan, asriy qadriyatlarini uqmasdan va zamonaviy bilimlarni egallamasdan yashab bo'lmaydi. "Har yili to'qson ming aql" deyildi, unga ega chiqish zarur, albatta. Barcha qishloqlarda ixcham, qulay kutubxonalar tizimini shakllantirish kerakligini davrning o'zi taqozo qilmoqda.

Kutubxonalar tizimini takomillashtirish, qishloqlarda ana shu ziyo maskanlarini tiklash, ularni badiiy va ilmiy adabiyotlar, davriy matbuot nashrlari bilan ta'minlash, shuningdek, "oila kutubxonasi" an'anasini yo'lga qo'yish kerak. Jahon axborot makonida "O'qish zarur bo'lgan 100 kitob" deganday ro'yxatlar muntazam e'lon qilib boriladi. Har bir oila uchun zarur milliy kitoblar ro'yxati shakllantirilib, ularni har bir xonadonga yetkazish bo'yicha loyihalar qilinsa, nur ustiga nur bo'ladi, albatta.

Yurti bog'-bo'stonga aylantirish odamlarning o'z qo'lida. Farg'ona xalqining mirishkorligi avval ham, hozir ham e'tirofdir markazida turibdi. Kishilarni ilg'or marallar sari ilhomlantirishning yangi mexanizmlari zarur bo'lib qolmoqda.

Vatanimizdagi ulkan va hayotbaxsh jarayonlarni ko'lamlari ta'riflash uchun jild-jild kitoblar yozsa arziydi. Bu yangilanishlar xalqona tarzda shunday ifoda etilmoqda: "Yangi uyga eski tushuncha bilan kirib bo'lmaydi". Yangi uying qadriga yetish uchun yangi tushunchalar, ma'naviyat va

ma'rifat kerak. Chunki so'z butun boshli mamlakatni tubdan yangilash va yuksaltirish haqida bormoqda. Bu hududlarga ham tegishli, albatta. Shuncha million kishi taqdiri va kelajagi turganida, maqsadlar ham shunga yarasha ulug'vor bo'ladi.

## Shonli tarix va yorqin kelajak ramzi

Maqolamiz avvalida ikki ming yil oldingi voqealarni va qudratli Xan sulolasi hukmdorining havasini keltirgan Farg'ona samoviy tulporlarini eslagan edik. Ular endilikda timsolga aylangan. Bugungi zamonaviy dunyoning arg'umoqlari butunlay boshqacha. Bu zako, iste'dod va qobiliyat tulporlaridir. Farg'ona ahli bugun ham madaniyati va san'ati, yetuk axloqi, birdamligi, yaratuvchanligi va bunyodkorligi bilan olimga o'rnak.

Kezi kelganda, bir mulohazani ham aytib o'tsak. Farg'onaga kiraverishda samoviy tulporlar ramzini o'rnatish vaqt-soati keldi. Bu tarixiy va zamonaviy timsol bugungi Farg'ona kishilarining zakovati, bunyodkorlik salohiyati, ezgu orzulari, yaxshi niyatlarining ifodasi bo'lib qad ko'taradi. Shu bilan birga, parvozga chog'langan bu samoviy tulporlar jannatmonand Farg'onaning shonli tarixi va yorqin kelajagining ramziga aylandi.

Darhaqiqat, dunyoda inson ruhiyati, tafakkuri, yashash tarziga kuchli ta'sir ko'rsatadigan, Vatanga muhabbati, hayotbaxsh islohotlarga daxldorlik tuyg'usi, o'z taqdiri va kelajagiga ishonchini yuksaltirib yuboradigan yangilanish jarayonlari bo'ladi. Shu ma'noda, yangi Farg'onaning bugungi ravnaq-rivoji va ertangi kun istiqboli yo'lida tashlanayotgan dadil qadamlar nufusi 4 mln. 200 ming nafarga yaqinlashgan viloyat ahli g'ayratga g'ayrat, shijoatiga shijoat qo'shayotgani ham ayni haqiqat.

Zotan, keyingi yillarda Farg'onaliklar tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi, orzu-maqsadlari yangilanib, keng ko'lamli islohotlar jarayonida hayotning jo'shqin oqimidan chetda qolmaslikka intilayotir. Prezidentimiz boshchiligidagi yangi davr, yangi zamon – yangi O'zbekiston dononlarini qat'iy ishonch, ayni reja, uzoqni ko'zlagan yuksak maqsadlar bilan zabt etmoqda. Bu Farg'ona viloyatining tobora muhtashamlik va ulug'vorlik kasb etib borayotganida yaqqol namoyon bo'layotgani quvonardidir.



## Yangi uyga eski tushuncha bilan kirib bo'lmaydi

Farg'onada salomlashishning yetmish xili bor, deyishadi ulug'lar. Oqsoqolga, yoshi kattaga, ustozga, qavm-qarindoshga, tengkur do'stu birodarga, qamo-xolalarga, kichiklarga salom berish o'zaro farqlanadi. So'zi bir, ammo izzati turlicha. Inson qadr-qimmat, el-yurt obro'si, axloq va odob tushunchalariga ham bu yerda munosabat o'zgacha. Ko'plab xorijliklar ayrica hurmat-izzat, favozega hayron qoladi, birinchi milliy an'analarni shunday: har qanday yangilikka, voqelikka bizlar farg'onacha

# BIRIDA ZO'R, BIRIDA ESA...

qishloqlar obod bo'lib, aholining farovonligi oshmoqda.

Ko'pchilik qiziltepaliklarni azaldan tadbirli kishilar, deyishadi. Aslida, o'tish davrining tashvishlari tuman ahliga ham begonamas. Mamlakatimizda fermerlik

egasiz, odamlar ishsiz, daromadsiz qoldi. Albatta, ushbu holatlar birgina Qiziltepa emas, barcha hududga daxldor. Ammo shu davrda ham har bir imkoniyatdan omikorlik bilan foydalanib, o'zi va atrofdegilar uchun daromad keltiradigan yangi avlod hayot sahnasiga chiqdi. Birgina fermerlik harakatini olsak, paxta va g'allada hosildorlik 2-2,5 baravarga oshirildi. Bugun viloyatda faoliyat yuritayotgan issiqxonalarining har to'rtinchisi, baliqchilik xo'jaliklarining har uchinchisi, asalarichilikning teng yarmi, mehmonxona xizmatining beshinchisi qiziltepaliklar hissasiga to'g'ri keladi.

Tumanimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi ish o'rinlari ochish maqsadida Kengsoy massivida yillar davomida foydalanilmagan yerlarning 300 gektari o'zlashtirilmog'na, deydi tuman hokimining o'rinbosari Hamza Farmonov. – Shu maqsadda bu yerda sug'orish tizimi uchun 50 ming kubli hovuz qazilmoqda, 4 ta yomg'irlatib sug'oruvchi pivot keltirildi. Massivda yana ming gektar yerni o'zlashtirish rejalashtirilgan. Bu ayni kunlarda tumanda qurilayotgan "Chorvachilik mikro-markazlari kompleksi" uchun mustahkam ozuqa bazasini yaratadi. Ushbu kompleks tumanning Xo'jaqo'rg'on mahallasida "Aziya" brendi ostida 40 turdan ortiq muzqaymoqlarni ishlab chiqarayotgan "Nurli hayot ice cream" MCHJ hamda "Yangi asr" fermer xo'jaligining suti qayta ishlash zavodi kabi korxonalar faoliyati barqarorligini ta'minlaydi.

So'z imkoniyatlar xususida ketarkan, islohotlarga barcha hudud uchun birdek start berilganini

ta'kidlamog' joiz. Afsuski, undan hamma birdek foydalana olmayapti. Bunday hududlar qatorida Xatirchini misol keltirish mumkin.

Tumanda 213 mingdan ortiq aholi istiqomat qilib, 2973 ta kichik biznes subyekti ro'yxatdan o'tgan. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, ularning 1384 tasi o'z faoliyatini to'xtatgan. Bu 2024-yil 1-yanvar holatidagiga nisbatan ikki baravar ko'p, demakdir. Achinarlisi, tuman bo'yicha 2023-yilda 428 ta kichik biznes subyekti faoliyat boshlagani holda 2024-yilda bu ko'rsatkich 290 tani tashkil etdi. Albatta, ushbu raqamlar ortida tumanda uzoq yillar mobaynida sohaning e'tibordan chetda qolganligi, zarur shart-sharoitlar yaratilmaganligi, hududda aholi bandligini ta'minlashdek og'ir masalalar turibdi. Xususan, bugungi kunda tuman bo'yicha mehnatga layoqatli aholining muayyan qismi ishsizlik maqomida qolib ketishi bo'yicha hududlar orasida eng quyi ko'rsatkichlardan birini egallamoqda.

Kezi kelganda ta'kidlash joiz, o'tgan yili tumanda rahbar o'zgardi. Bir qator yangi loyihalar amalga oshirilmog'na. Shuningdek, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarini ravnaq toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish, infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha loyihalar ijrosi uchun hukumatimiz tomonidan mamlakatning 16 ta hududi qatorida Xatirchiga ham 1 trln. so'm mablag' ajratilishi belgilandi. Tabiiyki, bu yangilanishlar xatirchiliklar qalbidan ham umid chirog'ini yoqmoqda.

Temur ESHBOYEV ("Xalq so'zi")

Qiziltepa tumani hokimligining "YANGI QIZILTEPA" telegram kanalida "SVS NAVOIY" MCHJ xorijiy korxonasi ma'muriyatining ishga taklif bo'yicha e'loni chiqarildi. Unda Qiziltepadagi Malikobod mahallasi "Yangi O'zbekiston" massivi yonidagi mazkur korxonaga besh million so'mgacha oylik ish haqi bilan operator, mexanik, tikuvchi hamda yordamchi ishchilar taklif qilingan. Odatda, bunday masalaga imi-jimida yondashilardi. Shu bois korxonaga faoliyati bilan qiziqdik.

## Tahlil va taqqos

"SVS NAVOIY" MCHJga 2021-yilda asos solingan bo'lib, unga "Malikobod" MFY hududidan 10 gektar yer maydoni ajratilgan. Shu davr mobaynida korxonaning 5 ta ishlab chiqarish sexi ishga tushirilib, 93,9 mlrd. so'mlik, 83,0 mln. juft qurilish qo'lloqi ishlab chiqarilgan.

Bugungi kunda loyihani amalga oshirish doirasida 6-sexning qurilish ishlari amalga oshirilmoqda, – deydi tuman hokimining birinchi o'rinbosari Nasriddin Hayitov. – Zarur asbob-uskunalar xorijdan bosqichma-bosqich keltirilib o'rnatilmoqda. 2025-2026-yillarda jami 40 mln. dollar xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish hisobiga korxonada 700 ta yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan. Joriy yilda qiymati 30,0 mln. dollarlik "Lateks qoplamali paxta qo'lloqlarini ishlab chiqarish" loyihasi amalga oshirilishi natijasida 500 ta ish o'rni ochiladi.

Xullas, 167 ming aholi istiqomat qiladigan Qiziltepada bunday korxonalar ko'p. Bugun viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining, aholi jon boshiga ishlab chiqarayotgan hududiy mahsulotlari va xizmatlari, jalb etilayotgan investitsiyalar hajmining salmoqli qismi qiziltepaliklar hissasiga to'g'ri keladi. O'tgan yilda viloyat bo'yicha 1122



ta qurilish korxonasi faoliyat olib borgan bo'lsa, ularning 180 tasi Qiziltepada ro'yxatdan o'tkazilib, mahalliy byudjetga daromad keltirmog'na. Natijada tuman hududidagi Vang'oz, G'ardiyon, Zarmitan, Toshrobot, Varozun kabi qadim

harakati boshlangan dastlabki yillar yerning "tili"ni biladigan tajribali dehqonlarga barcha sharoit yaratib berildi. Biroq ko'p o'tmay ushbu fermerlarning aksariyati texnika va qoramollarni sotib mashina olishdi, dabdabali to'ylar qilishdi. Oqibatda yer

ITALIYA – O'ZBEKISTONNING  
YEVROPADAGI JOZIBALI SHERIGI

Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Meloni xonimning yurtimizga rasmiy tashrifi ko'ha qit'a davlatlarining O'zbekistonga qiziqishi yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Italiya – O'zbekistonning Yevropa Ittifoqidagi eng muhim hamkorlaridan biri. Iqtisodiyoti ham yuksak darajada rivojlangan. Uning yalpi ichki mahsuloti 2 trln. dollardan ortiq bo'lib, xizmat ko'rsatish, sanoat, qishloq xo'jaligi sohaslarida katta tajribaga ega. U jahon sivilizatsiyasining qadimiy beshlikidan biri, boy madaniy meros va yuqori texnologiyalar markazi hamdir.

## Nuqtai nazar

O'zbekiston va Italiyani uzoq yillik tarixiy aloqalar bog'lab turadi. Bugun ham zamonaviy O'zbekiston Rimning Markaziy Osiyo siyosatida muhim o'rin egallaydi. Mustahkam ichki barqarorlik hamda Toshkentning o'zaro manfaatli mintaqaviy siyosati O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi kuchli hamkorga aylantirmoqda.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar so'nggi yillarda jadal rivojlanib borayotir. O'zaro manfaatlarga asoslangan hamkorlik iqtisodiy, madaniy, ta'lim va siyosiy sohalarni ham keng qamrab oladi.

Italiyaning yuqori texnologiyalari va tajribasi O'zbekiston iqtisodiyotini jahon bozoriga integratsiyalashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, Italiya bilan savdo aloqalarining kengayishi O'zbekiston mahsulotlarining Yevropa bozoriga kirishini osonlashtiradi. Qolaversa, ushbu davlat o'zining strategik joylashuvi tufayli Yevropa va Osiyo o'rtasidagi savdo yo'llarini rivojlantirishdagi o'rni salmoqli.

Katta portlari va transport infratuzilmasi mamlakatni tranzit markaziga aylantirmoqda. Robototexnika, avtomatika, biotexnologiya va energetika sohaslarida yuqori darajadagi tadqiqotlar olib borilmoqda. Mamlakat



Yevropa Ittifoqida iqtisodiy va moliyaviy salohiyati nuqtayi nazaridan Germaniya va Fransiyadan keyin uchinchi o'rinda turadi va dunyodagi yirik iqtisodiy davlatlardan biridir.

Bu yerda dunyoga mashhur universitetlar (Bolonya, Sapiensa) va ilmiy markazlar faoliyat yuritadi. Mamlakatda ilmiy tadqiqot ishlari va innovatsiyalar uchun keng imkoniyatlar mavjud. Italiyaning boy madaniyati va san'ati O'zbekistonga o'rganish va hamkorlik uchun manba hisoblanadi. Italiya universitetlari va ta'lim muassasalari bilan hamkorlik orqali O'zbekiston yoshlari zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishmoqda. Bu ikki tomonlama madaniy almashinuvlarni kuchaytirish, til o'rganish va xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Italiya dunyodagi eng mashhur turistik mamlakatlardan biri bo'lib,

madaniy merosi, tabiiy go'zalliklari hamda tarixi bilan sayyohlarni jalb etadi. Shu bois ushbu davlat turistik salohiyatini rivojlantirishda ham biz uchun muhim sherik hisoblanadi. Uning turistik texnologiyalari va xizmat ko'rsatish sohasidagi tajribasi O'zbekiston turizmini jahon miqyosida raqobatbardosh qilishga yordam beradi.

Italiya ham O'zbekiston bilan hamkorlikdan manfaatdor. Buni iqtisodiy, madaniy, siyosiy va strategik nuqtayi nazardan ko'rib chiqish mumkin. Italiya O'zbekistondagi iqtisodiy rivojlanishdan foydalanib, investitsiyalari va mahsulotlari bilan yangi bozorlarga kirish imkoniga ega bo'ladi. Maxsus loyihalar hamda investitsiyalarni amalga oshirish Italiya kompaniyalariga yangi daromad manbalari yaratadi. O'zbekiston bilan savdo aloqalarini rivojlantirish orqali o'z mahsulotlari va xizmatlarini Markaziy Osiyo bozorida kengaytirish imkonini topadi. Bu, o'z navbatida, eksportni oshirishga va iqtisodiy o'sishga olib keladi.

O'zbekistonning boy madaniyati va tarixidan foydalanish Italiyaning madaniy turizmini rivojlantirishga yordam beradi. Italiyanlar O'zbekistondagi madaniy meros va an'analarni tadqiq qilish imkoniga ega bo'ladi. Italiya ta'lim muassasalari O'zbekistondagi yoshlarga zamonaviy bilim va ko'nikmalar berish orqali madaniy almashinuvni rivojlantiradi. Bu ham Rimning xalqaro imijini mustahkamlaydi.

Italiyaning innovatsiyalari, investitsiyalari va tajribasi O'zbekistonni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu davlat bilan munosabatlarni

mustahkamlash va kengaytirish O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladi. Ikki tomonlama hamkorlikning yanada rivojlanishi, albatta, ikki xalqning farovonligi va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Raqaamlarga to'xtaladigan bo'lsak, o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 2017-yildagi 172,2 mln. dollardan 2024-yilda qariyb 438 mln. dollarga yetdi. Bunga mamlakatlar o'rtasida amalga bo'lgan eng qulay savdo rejimi, shuningdek, mamlakatimiz 2021-yilda benefitsiariga aylangan Yevropa Ittifoqining "GSP+" imtiyozli tizimi ko'p jihatdan yordam bermog'ga.

Aytish joizki, savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish ikki tomon uchun ham ustuvor vazifalardan. O'zaro savdo va investitsiyalar hajmi keyingi yillarda ikki barobar ko'paygani buni tasdiqlaydi. Metallurgiya, energetika, elektrotexnika va boshqa tarmoqlarda Italiyaning yetakchi kompaniyalari bilan sanoat kooperatsiyasi loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Keyingi yillarda o'zaro tovar ayirboshlash va qo'shma korxonalar soni ikki barobar ko'paydi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda Turin va Piza universitetlarining filiallari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. 2023-yilda Buxoroda Luijdi Vanvitelli nomidagi Kampaniya universitetining filiali ochildi. 2024-yil sentyabr oyida Toshkent, Buxoro va Samarqand shaharlarida O'zbekistonning 45 va Italiyaning 23 ta oliy o'quv yurtlari rahbarlari ishtirokida O'zbekiston – Italiya birinchi rektorlar forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Joriy yil 25-aprel kuni Samarqand shahrida ikki davlat oliy ta'lim muassasalari

rektorlari ishtirokida davra suhbat bo'lib o'tdi va tadbir doirasida fan hamda ta'lim sohasiga oid 6 ta hujjat imzolandi.

Italiya investitsiya va texnologiyalari ishtirokida mamlakatimizda gaz taqsimlash tizimlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, hashamatli temir yo'l kruizlarini yo'lga qo'yish, shuningdek, za'faron yetishtirish, chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilayotir. 2023-yil mart oyidan boshlab Toshkent, Milan va Rim shaharlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar yo'lga qo'yilgani ham ishbilarmonlik aloqalarini kengaytirish va mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etyapti.

Shu tariqa tomonlar muloqotni chuqurlashtirish, o'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish va gumanitar almashinuvni rivojlantirishdan manfaatdor ekanliklarini namoyon qilyapti. Bu O'zbekiston – Italiya strategik sherikligini konstruktiv hamkorlik namunasiga aylantirmoqda. Davlatlarimizning barcha sohadagi hamkorligi Italiyaning innovatsiyalari, investitsiyalari va tajribasi O'zbekistonni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham Italiya bilan munosabatlarni mustahkamlash va kengaytirish O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladi.

**Gulasal MADRAHIMOVA,**  
**I. M. Gubkin nomidagi**  
**Rossiya davlat neft va gaz**  
**universitetining**  
**Toshkent shahar filiali**  
**direktorining**  
**birinchi o'rinbosari, DSc,**  
**dotsent.**

EKOLOGIYA  
yangiliklari

## «Daraxtga nafas bering!»

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan navbatdagi ekologik aksiya ana shunday nomlandi. Yurtimizning barcha hududini qamrab olgan ushbu loyihaning asosiy maqsadi – daraxtlarning ildizlariga havo va suv kirishiga to'sqinlik qiluvchi holatlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish.



Shuningdek, daraxtlarga o'rnatilgan turli texnik qurilmalar – simlar, reklama bannerlari hamda tabiiy o'sishga xalal beruvchi boshqa narsalardan xalos qilish.

Mazkur tashabbus doirasida Samarqand viloyatining Narpay tumanida ekologiya bo'limi davlat inspektorlari tomonidan Islom shoir mahallasida yo'l yoqalaridagi daraxtlar holati monitoring qilindi. Tekshiruv davomida ikki tup qarag'ayning tagi betonlab yuborilgani, tanasiga turli elektr moslamalari o'rnatilgani aniqlandi. Bu holatlar zudlik bilan bartaraf etilib, mas'ullarga ogohlantirish berildi.

Bunday nazorat tadbirlari barcha hudud mahallalarida, dehqon bozori atrofida, tuman markaziy va ichki ko'chalarida ham davom etmoqda.

Toshloq hududlar o'rnida  
“yashil belbog”

Yashil manzillarni ko'paytirish ekologik muammolarni hal qilishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligidan xabar berishlaricha, Termiz, Angor, Muzrabot va Sherobod tumanlari hududidan o'tuvchi Olmaota – Bishkek – Toshkent – Termiz yo'nalishidagi xalqaro avtomobil yo'li yoqalariga manzarali daraxtlar ekildi.



Natijada bir paytlar qarovsiz, toshloq bo'lgan 61 km. masofadagi yerlar tekislanib, unumdor tuproqqa almashtirildi. Bugun bu yerda ko'zni quvnatadigan "yashil belbog" barpo qilingan.

Ushbu hududda jami 290 mingdan ortiq ko'chatlar ekilishi bilan birga, samarali sug'orish tizimi ham yo'lga qo'yilgan. Xususan, 122 km. maydonda ana shunday tizim o'rnatilib, 32 ta hovuz yaratilgan. Ko'chatlarni parvarishlashda tomchilatib sug'orish usulidan foydalaniladi.

## Innovatsiya yordam beradi

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi "Yoshlar oromgohi"da ekologik muammolar va ularning yechimlariga bag'ishlangan "Ekoormogoh – 2025" o'tkazildi.

Yoshlar orasida ekologik madaniyatni oshirish, aholining



ekologiya bilan bog'liq huquq va manfaatlarini himoyalash, ularning ilmiy hamda innovatsion qobiliyatlarini namoyon etish, ekologik muammolar va ularning yechimlariga bag'ishlangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan ushbu tadbirga yoshlar yetakchilari, yosh ekologlar, volontyorlar, ekofaollar hamda "Ekologiya bilimdonlari" tanlovi g'oliblari jalb qilingan.

Tadbir doirasida ekologik muammolar va ularning yechimlariga bag'ishlangan o'quv-seminar mashg'ulotlari, intellektual o'yinlar, ommaviy sport va plogging musobaqalari, "Ekologiya bilimdonlari" va boshqa tanlovlar, madaniy-ko'ngilochar tadbirlar, taniqli insonlar bilan uchrashuvlar hamda tarixiy obidalariga sayohatlar uyushtirildi.

Yakunda faol ishtirok etgan guruhlar va hudud jamoalari vakillari diplom hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Shuningdek, ishtirokchilarning har biriga maxsus sertifikatlar topshirildi.

**Rahim SHERQULOV**  
("Xalq so'zi") tayyorladi.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektorati va mehnat jamoasi institutining Sud tibbiyoti, tibbiyot huquqi kafedrasining mudiri, professor

**Alisher ISKANDAROV**ning  
vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur ta'ziya izhor etadi.

YURTIMIZDA IJOD QILAYOTGAN XONANDA,  
KOMPOZITOR VA BASTAKORLAR DIQQATIGA!

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda "O'zbekkonsert" davlat muassasasi barchamiz uchun eng ulug' va eng aziz bayram — yurtimiz mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan qo'shiqlar tanlovini e'lon qiladi.

Tanlovda xonandalar, shoirlar hamda bastakorlar Vatani, istiqlol, tinchlik va farovonlik, ona yurtga muhabbat va sadoqat, millatlararo do'stlik va hamjihatlik, o'zaro mehr-og'iqbat kabi yuksak insoniy tuyg'ular tarannum etilgan yangi qo'shiqlar bilan ishtirok etishlari mumkin.

Tanlovda qatnashish istagida bo'lgan ijodkorlar o'z qo'shiqlarini "O'zbekkonsert" davlat muassasasining "Mustaqillik — 2025" telegram manziligiga yo'llashlari mumkin.

G'olib deb topilgan xonandalar pul mukofoti hamda mustaqillik bayrami munosabati bilan o'tkaziladigan asosiy tadbirga o'z asarlari bilan tavsiya etiladi.

- 1 – o'rin uchun (bitta) 50 mln. so'm.
- 2 – o'rin uchun (bitta) 40 mln. so'm.
- 3 – o'rin uchun (bitta) 30 mln. so'm.

**Qadrlı yurtdoshlar! Vataniy tuyg'usi ijodkor uchun chinakam ilhom manbaidir. Shunday ekan, ushbu imkoniyatdan foydalanib, o'z iqtidoringizni namoyish qilishga shoshiling!**

**Ijodiy ishlar joriy yilning 1-avgustigacha qabul qilinadi.**  
**Tanlov g'oliblari 2025-yil 15-avgust kuni e'lon qilinadi.**  
**Murojaat uchun telefon: +998 71 234 24 28**

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI, AXBOROT VA  
OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR AGENTLIGI, O'ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI,  
RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

Prezidentimizning 2024 yil 4 iyunda qabul qilingan "Badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotini ta'asis etish to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, o'zbek adabiyotining eng yaxshi asarlarini xorijiy tillarga, jahon adabiyotining sara namunalari o'zbek tiliga tarjima qilishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot tanlovini e'lon qiladi.

Mamlakatimizda ilk bor o'tkazilayotgan mazkur xalqaro adabiy tanlov milliy adabiyotimizni dunyoda keng targ'ib qilayotgan, jahon adabiyotining eng sara asarlarini o'zbek tiliga o'girib, kitobxonlarga taqdim etayotgan fidoyi tarjimonlar mehnatini munosib rag'batlantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni ommalashtirish, xorijiy mamlakatlarda o'zbekistonlik adiblar ijodiga qiziqishni yanada oshirish kabi xayrli maqsadlarni nazarda tutadi.

Mazkur tanlovga e'lon berilgan sanadan boshlab o'tgan besh yil davomida kitob holida chop etilgan

yoki bosma davriy va elektron adabiy nashrlarda e'lon qilingan tarjima asarlar qabul qilinadi.

**Xalqaro tanlov quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'tkaziladi va unga belgilangan hajmdan kam bo'lmagan asarlar qabul qilinadi:**

o'zbek adabiyoti nasriy asarlaridan xorijiy tillarga qilingan eng yaxshi tarjima – kamida o'n bosma taboq; o'zbek adabiyoti she'riy asarlaridan xorijiy tillarga qilingan eng yaxshi tarjima – kamida besh bosma taboq;

o'zbek bolalar adabiyoti namunalariidan xorijiy

tillarga qilingan eng yaxshi tarjima – kamida besh bosma taboq;

xorijiy tillarda yaratilgan nasriy asarlardan o'zbek tiliga qilingan eng yaxshi tarjima – kamida o'n bosma taboq;

xorijiy tillarda yaratilgan she'riy asarlardan o'zbek tiliga qilingan eng yaxshi tarjima – kamida besh bosma taboq;

xorijiy tillarda yaratilgan bolalar adabiyoti namunalariidan o'zbek tiliga qilingan eng yaxshi tarjima – kamida besh bosma taboq.

Dramaturgiya janriga oid tarjima asarlar ushbu bandeda ko'rsatilgan yo'nalishlar asosida ko'rib chiqiladi.

**Xalqaro tanlovga asarlar 2025 yil 1 sentyabrga qadar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan qabul qilinadi.**

**G'oliblarning har biri maxsus diplom, ko'krak nishoni va bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravari darajasida bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanadi. Qo'shimcha ma'lumotlarni internetdagi «ogahiyukofoti.uz» saytidan olish mumkin.**

## Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanidagi Xalqobod mahallasida "Tomorqa maktabi" tashkil etildi.

Xalq so'zi  
Narodnoe slovo

**MUASSISLAR:**  
**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi**  
**Qonunchilik palatasi Kengashi**  
**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi**  
**Senati Kengashi**

## Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-642. 13 107 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



**TELEFONLAR:**  
**Devonxona 71-259-74-51; ko'chibuyi 71-259-74-53;**  
**e'lonlar 71-259-74-55.**



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
**100066,**  
**Toshkent shahri,**  
**Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.**  
**Navbatchi muharrir X. Norboev.**  
**Musahhih Sh. Mashrabboev.**

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 20.10 Topshirildi — 00.45 **1 2 3 4 5 6**